

# O'ZBEKISTON



MIGRATSIYA MA'LUMOTLARIDAGI  
BO'SHLIQLARNI TAHLIL QILISH  
2024-YIL YANVAR



Funded by the  
European Union



Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)  
Global ma'lumotlar instituti (GDI)  
Taubenstraße 20-22  
10117 Berlin  
Germaniya

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)  
O'zbekiston vakolatxonasi  
O'zbekiston, Toshken shahri,  
Mirzo Ulug'bek tumani,  
Lomonosov ko'chasi, 4-uy

## Eslatma

Ushbu hisobot Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan "Migratsiya sohasidagi tahlil va dasturlar uchun mintaqaviy dalillar" (REMAP – Regional Evidence for Migration Analysis and Policy) loyihasi natijalarining bir qismidir.

Ushbu hujjat Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magida tayyorlangan. Ushbu hisobotda bildirilgan fikrlar yuqorida qayd etilgan donor tashkilotlar, IOM yoki unga a'zo davlatlarning rasmiy qarashlarini hech qanday tarzda aks ettirmaydi. Hisobotda qo'llanilgan belgilar va materialning taqdimoti IOM tomonidan biron bir mamlakat, hudud, shahar yoki tumanning yoki uning hokimiyat organlarining huquqiy maqomi yoki uning chegaralari yoki sarhadlari to'g'risidagi hech qanday fikrni anglatmaydi. Bundan tashqari, ushbu hisobotda foydalanilgan xaritalar faqat tasvirlash maqsadida qo'llanildi.

Hisobotning asl nusxasi ingliz tilida tayyorlanib, o'zbek tiliga norasmiy tarzda tarjima qilindi.

MTM axborot mahsulotlaridan foydalanish shartlari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun quyidagi havoladan foydalaning: <https://dtm.iom.int/terms-and-conditions>

© 2024 Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)

## BIZ BILAN BOG'LANISH

Qo'shimcha ma'lumot uchun MTM guruhi bilan bog'laning:

✉ [mtmuzbekistan@iom.int](mailto:mtmuzbekistan@iom.int)

📘 [facebook.com/IOMUzbekistanofficial](https://facebook.com/IOMUzbekistanofficial)

🐦 [twitter.com/IOMUzbekistan](https://twitter.com/IOMUzbekistan)

📷 [instagram.com/iomuzbekistan/](https://instagram.com/iomuzbekistan/)

# MUNDARIJA

I. RASMLAR RO'YXATI	4
II. JADVALLAR RO'YXATI	4
III. XARITALAR RO'YXATI	4
IV. TA'RIFLAR RO'YXATI	5
V. AKRONIM VA QISQARTMALAR RO'YXATI	9
1. MAVZUNING QISQACHA MAZMUNI	10
2. KIRISH	12
2.1 FOYDALANISH SOHASI	12
2.2 MIGRATSIYA MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	12
2.3 CHEKLOVLAR	14
3. XALQARO MIGRATSIYA	15
3.1 IMMIGRATIYA	16
3.2 EMIGRATSIYA	18
3.3 QAYTISH MIGRATSIYASI	22
3.4 NOQONUNIIY MIGRATSIYA	25
4. MAJBURIY MIGRATSIYA VA KO'CHIRISH	29
4.1 O'ZBEKISTONDA BO'LIB TURGAN QOCHQINLAR	29
4.2 O'ZBEKISTONLIK QOCHQINLAR	31
4.3 O'ZBEKISTONDA ICHKI KO'CHIRISH	34
5. ICHKI MIGRATSIYA	36
6. KATTA MA'LUMOTLAR	39
7. MIGRATSIYA SIYOSATI VA MANFATDOR TOMONLAR	40
8. PUL O'TKAZMALARI	45
9. MA'LUMOTLARDAGI BO'SHLIQLAR VA KELAJAKDAGI TADQIQOTLAR	48
10. ADABIYOTLAR	50

# I. RASMLAR RO‘YXATI

1-rasm: Kelib chiqish mamlakati bo‘yicha O‘zbekistondagi immigratlar soni, 2020-yil (mutlaq raqamlar)	16
2-rasm: Immigrantlar oqimi, 2018-2020-yillar (mutlaq raqamlar)	16
3-rasm: Boruvchi mamlakatlar bo‘yicha o‘zbekistonlik emigrantlar soni, 2020-yil (mutlaq raqamlar)	19
4-rasm: O‘zbekistonlik emigrantlar oqimi, 2018-2022-yillar (mutlaq raqamlar)	20
5-rasm: O‘zbekistonga qaytgan migrantlar oqimi, 2020-2022-yillar (mutlaq raqamlar)	23
6-rasm: IOM tomonidan O‘zbekistonga ixtiyoriy ravishda qaytishga yordam berilgan migrantlar soni, 2018-2022-yillar (mutlaq raqamlar)	23
7-rasm: O‘zbekistonda 2018-yildan – 2023-yil noyabr oyigacha odam savdosidan jabrlanganlar soni (mutlaq raqamlar)	26
8-rasm: Yevropa Ittifoqi davlatlarida noqonuniy bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolari soni, 2018-2022-yillar (mutlaq raqamlar))	27
9-rasm: O‘zbekistonga joylashgan qochqinlar va boshpana izlovchilar soni, 1993-2022-yillar (mutlaq raqamlar)	30
10-rasm: O‘zbekistonlik boshpana izlovchilar tomonidan che el mamlakatlarida taqdim etilgan boshpana arizalari (oqimi) va arizalar bo‘yicha qarorlar, 2018-2023-yillar (mutlaq raqamlar)	33
11-rasm: O‘zbekistonda ichki migrantlar oqimi (jinsi bo‘yicha), 2018-2022-yillar (mutlaq raqamlar)	36
12-rasm: O‘zbekistonda mintaqalar bo‘yicha ichki migratsiya, 2022-yil (mutlaq raqamlar))	36
13-rasm: Jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekistonga pul o‘tkazish tizimlari orqali yuborilgan pul o‘tkazmalari miqdori, 2018-2022-yillar (milliard AQSH dollari)	45
14-rasm: O‘zbekistondan chetga pul o‘tkazmalari miqdori, 2018-2021-yillar (million AQSH dollari)	46
15-rasm: To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning sof oqimi, 2018-2022-yillar (million AQSH dollari)	47

# II. JADVALLAR RO‘YXATI

1-jadval: Ma‘lumotlar mavjudligi namuna jadvali	13
2-jadval: Yillik jadval bo‘yicha manbalar namunasi	13
3-jadval: O‘zbekistonga immigratsiya bo‘yicha mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	17
4-jadval: O‘zbekistondan emigratsiya bo‘yicha mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	21
5-jadval: O‘zbekistonga qaytish migratsiyasi bo‘yicha mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	24
6-jadval: O‘zbekistonda noqonuniy migratsiya bo‘yicha mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	28
7-jadval: O‘zbekistonda bo‘lib turgan qochqinlar to‘g‘risida mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	31
8-jadval: Qabul qiluvchi mamlakat bo‘yicha 2023-yil o‘rtalari holatiga ko‘ra o‘zbekistonlik qochqinlar va boshpana izlovchilar (mutlaq raqamlar)	32
9-jadval: O‘zbekistonlik qochqinlar to‘g‘risida mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	33
10-jadval: O‘zbekistonda ichki ko‘chirishlar to‘g‘risida mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	35
11-jadval: O‘zbekistonda ichki migratsiya bo‘yicha mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	38
12-jadval: O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalar	42
13-jadval: O‘zbekistonning migratsiya bo‘yicha milliy qonunchiligi	43
14-jadval: O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari to‘g‘risidagi mavjud ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, 2023-yil	47

# III. XARITALAR RO‘YXATI

1-xarita: O‘zbekistonda ichki ko‘chirilgan aholi va ichki ko‘chish hodisalari, 2000-2022-yillar	34
---	----

### III. TA'RIFLAR RO'YXATI

TERMINOLOGIYA	USHBU HISOBOTDA FOYDALANILGAN TA'RIFLAR	IOM TA'RIFI (agar hisobotda foydalanilganidan farq qilsa)
<b>Migrant</b>	<p>Kelganlar soni: "Kelganlarning mutlaq soni, ya'ni, tegishli hududga uning chegarasidan tashqaridan kirib kelgan shaxslar. Yashash joyi bo'yicha aholini hisobga olishda ichki ishlar organlari tomonidan tuziladigan ko'chib kelganlarni statistik hisobga olish uchun talonlarni ishlab chiqish natijasida aniqlanadi" (O'ZSTAT, 2022a).</p> <p>Xorijdan kelgan migrantlar, O'zbekistonga doimiy yashash uchun kelganlar, shuningdek, chet eldan kelgan yoki kelayotganlar: "O'ZSTAT choraklik va yillik hisobotlarida, yilnomalarida va ma'lumotlar to'plamida O'zbekistonga doimiy yashash uchun kelgan chet el fuqarolarini tavsiflashda foydalaniladigan ta'riflar".</p>	<p>IOM migrant sifatida (1) ushbu shaxsning huquqiy maqomi, (2) uning harakati ixtiyoriymi yoki ixtiyorsizmi; (3) uning harakatlari sabablari nimada; yoki (4) uning qolish muddati qancha ekanligidan qat'i nazar, xalqaro chegara orqali yoki davlat ichida odatdagi yashash joyidan uzoqroqqa ko'chayotgan yoki ko'chib o'tgan har qanday shaxsni belgilaydi. IOM migrantlar va migratsiya bilan bog'liq masalalar hamda xalqaro migratsiya xizmatlariga muhtoj bo'lgan migrantlar ehtiyoji bilan tegishli davlatlar bilan kelishilgan holda shug'ullanadi (IOM, 2011).</p>
<b>Boshpana izlovchilar</b>	<p>O'zbekiston milliy qonunchiligida siyosiy boshpana tushunchasi qo'llaniladi. Siyosiy boshpana o'zining fuqaroligi bo'yicha mansub davlatda yoki doimiy yashash joyida ijtimoiy-siyosiy faoliyati, diniy e'tiqodi, irqiy yoki milliy mansubligi uchun ta'qib qilinayotgan yoki ta'qib qilishning jabrlanuvchisi bo'lishiga real tahdididan, shuningdek xalqaro huquq normalarida nazarda tutilgan inson huquqlari buzilishining boshqa holatlaridan boshpana va himoya izlayotgan shaxslarga va ularning oila a'zolariga beriladi. (Lex.uz, 2021a).</p>	<p>Ta'qiblar yoki jiddiy tahdidlardan o'z davlatidan boshqa mamlakatda boshpana qidirayotgan va tegishli xalqaro va milliy hujjatlarga muvofiq qochqin maqomini olish haqidagi da'vo bo'yicha qarorni kutayotgan shaxs. Agar ushbu qaror salbiy bo'lsa, mazkur shaxs mamlakatni tark etishi lozim hamda agar insonparvarlik yoki boshqa tegishli sabablarga ko'ra uning qolishiga ruxsat etilmasa, mazkur shaxs fuqaroligi bo'lmagan yoki noqonuniy maqomga ega bo'lgan har qanday shaxs kabi mamlakatdan chiqarib yuborilishi mumkin (IOM, 2011).</p>
<b>Qochqin</b>	<p>O'zbekiston 1951-yilda qabul qilingan BMTning Qochqinlar bo'yicha Konvensiyasiga a'zo emas va mamlakatga kelgan shaxslarning qochqin maqomini tan olmaydi. Shunga qaramay, O'zbekistondan boshpana so'ragan qochqinlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarida mavjud. O'zbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasi, 1994-yilgi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 1994-yildagi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 2017-yilgi O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berish tartibi to'g'risidagi nizom, 2021-yilgi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa hujjatlar (Kiseleva, 2022) shular jumlasidandir. Ushbu hisobot 1951-yildagi BMTning Qochqinlar bo'yicha Konvensiyasida belgilangan qochqin ta'rifiga asoslanadi.</p>	<p>Irqi, dini, millati, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi yoki siyosiy e'tiqodiga ko'ra ta'qib qilinib, asosli qo'rquvi tufayli tegishli fuqaroligi bo'lgan mamlakatdan tashqarida bo'lgan hamda o'z qo'rquvi tufayli ushbu mamlakat himoyasidan foydalana olmaydigan yoki foydalanishni istamaydigan shaxs (Qochqinlar to'g'risidagi Konvensiya, 1(A)(2)-modda, 1951-yil. 1967-yilgi Protokol bilan 1(A)(2)-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar asosida).</p>
<b>Fuqaroligi bo'lmagan shaxs</b>	<p>O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lmagan shaxs (Lex.uz, 2021a).</p>	<p>Ma'lum bir davlat qonunlariga ko'ra o'sha davlat fuqarosi hisoblanmaydigan shaxs. (BMTning Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi Konvensiyasi 1-moddasi ((1954-yil 28-sentabrda qabul qilingan, 1960-yil 6-iyunda kuchga kirgan) 360 UNTS 117)</p>
<b>Majburiy migratsiya</b>		<p>"Majburlash elementi mavjud bo'lgan migratsiya harakati, shu jumladan tabiiy yoki texnogen sabablar (masalan, qochqinlar va majburiy ko'chirilganlar harakati, shuningdek, tabiiy yoki ekologik ofatlar, kimyoviy yoki yadroviy ofatlar, ocharchilik yoki rivojlanish loyihalari) natijasida ko'chirilgan odamlarning harakati. (IOM, 2011)."</p>

<b>Noqonuniy migrant</b>	O'zbekistonning qonunchilik va uslubiy hujjatlarida "noqonuniy migrant" tushunchasining aniq ta'rifi topilmagan. Shu bilan birga, O'zbekiston Jinoyat kodeksida davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tganlik uchun jazoni tartibga soluvchi 223-modda mavjud (Lex.uz, 1994)	Tegishli hujjatlarsiz mamlakatga kirgan yoki qolgan chet el fuqarosi bo'lgan shaxs. Bularga quyidagilar kiradi: (a) mamlakatga kirish uchun qonuniy hujjatlarga ega bo'lmagan, lekin mamlakatga yashirin kirishga muvaffaq bo'lgan shaxs, (b) soxta hujjatlardan foydalangan holda mamlakatga kirgan yoki qolgan shaxs, (c) qonuniy hujjatlar yordamida mamlakatga kirib, ruxsat etilgan muddatdan oshib ketgan yoki kirish shartlarini buzgan va ruxsatsiz qolgan shaxslar (IOM, 2011).
<b>Ixtiyoriy qaytish</b>	"Qaytayotgan shaxsing ixtiyoriy qarori asosida kelib chiqqan mamlakatiga, tranzit yoki boshqa mamlakatga mustaqil ravishda yoki ko'mak asosida qaytish (IOM, 2011)."	
<b>Ko'mak asosida ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya</b>	"Qabul qiluvchi yoki tranzit mamlakatda qola olmaydigan yoki qolishni istamaydigan va kelib chiqish mamlakatiga qaytishga qaror qilgan migrantlarga ma'muriy, moddiy-texnik yoki moliyaviy yordam, shu jumladan reintegratsiya ko'magi (IOM, 2011)."	
<b>Mamlakatni tark etish buyurilgan uchinchi davlat fuqarolari</b>	"Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatda noqonuniy tarzda bo'lib turgani qayd etilib, ushbu davlat hududidan chiqib ketish majburiyatini yuklaydigan ma'muriy qaror, sud qarori yoki akti qo'llanilgan uchinchi davlat fuqarolari (YEVROSTAT, 2023e)."	
<b>Noqonuniy ravishda mamlakatda bo'lgan uchinchi davlat fuqarolari</b>	"A'zo davlatlar organlari tomonidan aniqlangan va immigratsiyaga oid milliy qonunchilikka muvofiq noqonuniy ravishda mamlakatda bo'lib turgan uchinchi davlat fuqarolari (YEVROSTAT, 2023d)."	
<b>Xavf guruhi</b>	"Rossiya Federatsiyasida noqonuniy migratsiya sonini rasman baholash uchun Rossiya IIV Migratsiya ishlari bo'yicha Bosh boshqarmasi tomonidan qo'llaniladigan ko'rsatkich. (Chudinovskix, 2020)."	
<b>Maxsus manfaatdor chet elliklar</b>	"AQSH hukumati tomonidan terrorizmni targ'ib qilish yoki himoya qilish, AQSh milliy xavfsizligiga har qanday tahdid solish elementlariga ega bo'lishi belgilagan mamlakatlardan kelgan odamlardir (Milliy xavfsizlik departamenti (MXD), 2019)."	
<b>Ichki ko'chirilgan shaxslar (IDPs)</b>	"Majburiy ko'chirilgan shaxslar yoki shaxslar guruhlar (IKSh) xususan, qurolli to'qnashuvlar, umumiy zo'ravonlik holatlari, inson huquqlarining buzilishi yoki tabiiy yoki inson tomonidan sodir etilgan ofatlar natijasida yoki ularning oldini olish uchun qochishga yoki o'z uylarini yoki odatiy yashash joylarini tark etishga majbur bo'lganlar hamda xalqaro miqyosda tan olingan davlatlar chegarasini kesib o'tmaganlar (IOM, 2011)."	

<b>Ichki ko'chirishlar</b>	Bu raqam-yil davomida qayd etilgan odamlarning o'z mamlakati chegaralari doirasidagi majburiy ko'chirishlar sonini bildiradi. Raqamlar bir necha marta ko'chirilgan odamlarni o'z ichiga olishi mumkin (IKMM Data Portal, 2023)."	
<b>Odam savdosi</b>	Kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish yo'li bilan odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning o'zga shakllarini, majburiy mehnatni yoki xizmatlarni, qullikni yoxud qullikka o'xshash odatlarni, erksizlik holatini yoxud inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olishni anglatadi (Lex. uz, 2020d)	Kuch qo'llash yoki majburlashning boshqa shakllari, odam o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyat yoki zaiflik mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan odamlarni yollash, tashish, o'tkazish, boshpana berish yoki qabul qilish yoki roziligini olish uchun to'lovlar yoki imtiyozlar berish yoki olish, ekspluatatsiya qilish maqsadida boshqa shaxs ustidan nazoratga ega bo'lish (IOM, 2011).
<b>Migrantlar kontrabandasi</b>	O'zbekiston qonunchiligida migrantlar kontrabandasi haqida hech qanday ma'lumot yo'q.	Bevosita yoki bilvosita moliyaviy yoki boshqa moddiy manfaat olish maqsadida shaxsning fuqaroligi yoki doimiy yashash ruxsatnomasi bo'lmagan ishtirokchi-davlatga noqonuniy kirishini ta'minlash (IOM, 2011).
<b>Immigrant</b>	Xorijdan kelgan immigrantlar, O'zbekistonga doimiy yashash uchun kelganlar, shuningdek, xorijdan kelganlar yoki kelayotganlar: "O'ZSTAT choraklik va yillik hisobotlarida, yilnomalarida va ma'lumotlar to'plamida O'zbekistonga doimiy yashash uchun kelgan xorijiy fuqarolarini tavsiflashda ishlatiladigan ta'riflar". Ko'chib kelganlar soni: "Kelganlarning mutlaq soni, ya'ni tegishli hududga uning chegarasidan tashqaridan kirib kelgan shaxslar bo'lib, yashash joyi bo'yicha aholini hisobga olishda ichki ishlar organlari tomonidan tuziladigan ko'chib kelishlarni statistik hisobga olish uchun talonlarni ishlab chiqish natijasida aniqlanadi. (O'ZSTAT, 2022a)."	Ko'chib kelish mamlakati nuqtai nazaridan, bu o'zining fuqaroligi yoki doimiy yashash joyidan boshqa mamlakatga ko'chib o'tuvchi shaxs bo'lib, mazkur shaxs ko'chib borgan mamlakat uning doimiy yashash joyiga aylanadi. (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti Xalqaro migratsiya statistikasi bo'yicha tavsiyalaridan olindi, 1-nashr (1998), 10-bet, "Uzoq muddatli migrantlar" ta'rifi. IOM, 2019).

<b>Emigrant</b>	<p>Yashash joyini tashlab ketuvchi yoki chiqib ketuvchilar soni: Chiqib ketganlarning mutlaq soni, ya'ni tegishli hududdan uning chegarasidan tashqariga chiqib ketgan shaxslar. Yashash joyi bo'yicha aholini ro'yxatdan chiqarishda ichki ishlar organlari tomonidan tuziladigan chiqib ketishni statistik hisobga olish uchun talonlarni ishlab chiqish natijasida aniqlanadi (O'ZSTAT, 2022a)."</p> <p>Chet eldan kelgan migrantlar, O'zbekistondan doimiy yashash uchun ketganlar yoki chiqib ketganlar: "O'ZSTAT choraklik va yillik hisobotlarida, yilnomalarida va ma'lumotlar to'plamida O'zbekistondan doimiy yashash uchun chiqib ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tavsiflashda foydalaniladigan ta'riflar."</p> <p>Xorijda ishlaydigan fuqarolar: "TMMA hisobotida xorijdagi o'zbekistonlik mehnat migrantlarini tavsiflash uchun foydalanilgan ta'rif".</p>	<p>Ketish mamlakati nuqtai nazaridan, bu o'z fuqaroligi yoki odatdagi yashash joyidan boshqa mamlakatga ko'chib o'tgan shaxs bo'lib, boradigan mamlakat samarali ravishda uning odatiy yashash joyiga aylanadi. (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar, uzoq muddatli migrantlar departamenti, Xalqaro migratsiya statistikasi bo'yicha tavsiyalar, 1-nashr (1998), 18-bet. IOM, 2019-yil).</p>
<b>Pul o'tkazmalari</b>	<p>Xalqaro pul o'tkazmalari: "Xalqaro to'lov tizimlari orqali pul mablag'larini oluvchining hisob raqamiga yuborish yoki ularni naqd pulda berish uchun jo'natuvchidan oluvchiga o'tkazish (O'MB, 2022).".</p>	



## IV. AKRONIM VA QISQARTMALAR

<b>TMMA</b>	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allik qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiya agentligi
<b>BDHRL</b>	AQSh Davlat Departamentining demokratiya, inson huquqlari va mehnat byurosi
<b>QSB</b>	Qozog'iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligining milliy statistika byurosi
<b>O'MB</b>	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
<b>RMB</b>	Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki
<b>MDH</b>	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi
<b>MORK</b>	MDHga a'zo davlatlarning migratsiya organlari rahbarlari kengashi
<b>YEID</b>	Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi
<b>IXB</b>	Ichki xavfsizlik boshqarmasi
<b>YEVROSTAT</b>	Yevropa Ittifoqi Statistika boshqarmasi
<b>IKMM</b>	Ichki ko'chish bo'yicha monitoring markazi
<b>IKSh</b>	Ichki ko'chirilgan shaxslar
<b>ILO</b>	Xalqaro mehnat tashkiloti
<b>KNOMAD</b>	Migratsiya va rivojlanish bo'yicha global bilimlar hamkorligi
<b>MFRBB</b>	O'zbekiston Respublikasi Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi
<b>FVV</b>	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
<b>BKQV</b>	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi
<b>IIV</b>	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
<b>MMP</b>	Migratsiya ma'lumotlar portali
<b>IHMM</b>	Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi
<b>NNT</b>	Nodavlat notijorat tashkilotlar
<b>NQT</b>	Norvegiya qochqinlar kengashi
<b>YXHT</b>	Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti
<b>PMMT</b>	Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Migratsiya boshqaruvi raisligi
<b>PRP</b>	Praga jarayoni
<b>ROSSTAT</b>	Rossiya Federatsiyasi Federal davlat statistika xizmati
<b>UNDESA</b>	BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy masalalar departamenti
<b>UNDP</b>	Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi
<b>UNECE</b>	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi
<b>UNHCR</b>	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi
<b>UNODC</b>	BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi
<b>UNTC</b>	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Shartnomalari to'plami
<b>USAID</b>	AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi
<b>USDOS</b>	AQSh Davlat Departamentining Odam savdosi monitoringi va unga qarshi kurash bo'yicha nashriyot Idorasi
<b>O'ZSTAT</b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
<b>JBG</b>	Jahon banki guruhi
<b>JSST</b>	Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti

# 1. MAVZUNING QISQACHA MAZMUNI

Ushbu hisobot metodologiya bo'limida tushuntirilganidek, migratsiya ma'lumotlari manbalarini o'rganish bo'yicha tadqiqot asosiy xulosalarini umimlashtiradi hamda O'zbekistonga oid mavjud migratsiya ma'lumotlarini aniqlaydi. O'rganilgan migratsiya ma'lumotlari mavjud tegishli hukumat ma'lumotlar bazalarini, shuningdek, O'zbekistondagi BMT agentliklari va boshqa rivojlanish dasturi ishtirokchilari ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Xususan, ma'lumotlar tahlili immigratsiya, emigratsiya, qaytish migratsiyasi, noqonuniy migratsiya, O'zbekistonga kelgan qochqinlar, O'zbekistondan ketgan qochqinlar, ichki ko'chish, ichki migratsiya, katta ma'lumotlar va pul o'tkazmalari kabi sohalarni qamrab oldi. Hisobotda asosiy migratsiya dasturlari va tegishli manfaatdor tomonlar ham yoritilgan.

**O'zbekistonga immigratsiya to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar to'plami** tahlil qilganib, ular xalqaro muassasalar tomonidan muntazam ravishda qayta ishlanadigan immigrantlar soni to'g'risidagi ma'muriy va statistik ma'lumotlardani hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'ZSTAT) kabi mahalliy statistika agentliklari tomonidan muntazam ravishda yig'iladigan immigrantlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat ekanligi aniqlandi. Mavjud ma'lumotlar immigrantlarning jinsi va yoshi, qabul qiluvchi mamlakatdagi joylashuvi va kelib chiqish mamlakati bo'yicha ajratilishi mumkin. Biroq, ma'lum-yillardagi immigrantlar soni, shuningdek, immigrantlarning o'z vatanidagi kelib chiqish hududi, bandlik holati va ta'lim darajasi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas. Ushbu bo'shliqlarni bartaraf etish va immigratsiya modellarining nozik jihatlarini tavsiflash uchun qo'shimcha chuqur tadqiqotlar talab etiladi.

**O'zbekiston fuqarolarining boshqa davlatlarga emigratsiyasiga** oid ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekistondan emigratsiya to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy qismi emigrantlar, shu jumladan mehnat migrantlari soni va oqimi to'g'risidagi ma'muriy va statistik ma'lumotlardan iborat. Ma'lumotlar to'plamiga BMT agentliklari va boshqa xalqaro ma'lumotlar bazalari, shuningdek, milliy statistika hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (BKQV) va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA) kabi soha idoralarining ma'lumotlar to'plami va hisobotlari kiradi. Emigrantlarning soni va oqimi jinsi, yoshi, borish mamlakati va kelib chiqish joyiga qarab ajratilishi mumkin. Ko'p sonli ma'lumotlar manbalariga qaramasdan, ma'lum bir-yil ichida emigrantlarning ta'lim darajasi, jinsi va yoshi to'g'risidagi ma'lumotlarda bo'shliqlar mavjud. Keyingi tadqiqotlar aniqlangan ma'lumotlar bo'shliqlarini bartaraf etishga qaratilishi lozim.

**Qaytish migratsiyasi** ma'lumotlariga Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA) tomonidan ishlab chiqarilgan tegishli davlat tashkilotlari ma'lumotlari to'plami, xalqaro migratsiya ma'lumotlar bazalari, xalqaro tashkilotlarning so'rovlari va hisobotlari, akademik resurslar va onlayn media maqolalari kiradi. Asosiy ma'lumotlar O'zbekistonning qaytib kelgan fuqarolari va IOM ko'magida qaytib kelganlar soniga qaratilgan. Qaytgan migrantlarning jinsi va yoshi, qaysi mamlakatdan qaytishi, vatandagi qaytish joyi, qaytishdan oldingi ish turi va ta'lim darajasi statistikasida bo'shliqlar mavjud. Keyingi tadqiqot harakatlari aniqlangan ma'lumotlar bo'shliqlarini bartaraf etishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

**Noqonuniy migratsiya** va odam savdosi to'g'risidagi ma'lumotlar asosan Ichki ishlar vazirligi (IIV) tomonidan qayta ishlangan milliy ma'lumotlarga, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va akademik tadqiqotchilarning ma'lumotlar bazalariga asoslanadi. Noqonuniy migratsiya to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasda, bu sohadagi mavjud holat va tendensiyalar haqida yetarlicha ma'lumot beradi. Shu bilan birga, qo'shimcha tadqiqot harakatlari noqonuniy migratsiya, kontrabanda va odam savdosi uchun qo'llaniladigan yo'llar va usullar, shuningdek, hujjatsiz/kontrabanda shaxslarning ijtimoiy-demografik holatiga qaratilishi lozim.

O'zbekistonda bo'lib turgan **qochqinlar haqidagi ma'lumotlar** asosan BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligi (UNHCR), Ichki ko'chish bo'yicha monitoring markazi (IKMM), BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy masalalar departamenti (UNDESA), Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) kabi ixtisoslashgan agentliklarining ma'lumotlar bazalaridan to'planadi. Ushbu ma'lumotlar har yili yangilanadi va qochqinlarning kelib chiqishi, jinsi va yoshi bo'yicha ajratilishi mumkin. Ma'lumotlar ma'lum bir yil oxiridagi qochqinlarning umumiy sonini ko'rsatadi.

Tegishli davlat idoralarida **O'zbekistonlik qochqinlar soni haqida ma'lumot** topishning imkoni bo'lmadi. Asosiy manbalar BMT agentliklarining ma'lumotlar bazalari va uchinchi davlatlarning statistik ma'lumotlar bazalaridir. Ushbu ma'lumotlar har yili yangilanadi va qochqinlarning jinsi, yoshi va borish mamlakati bo'yicha ajratilishi mumkin. O'zbekistonga kelayotgan va O'zbekistondan ketayotgan qochqinlar haqidagi ma'lumotlarni kelgusida o'rganishda asosiy e'tibor qochqinlarning ta'lim darajasini o'rganish va ularni boshqa mamlakatlardan boshpana izlashga majbur qilayotgan sabablarni tahlil qilishga qaratilishi tavsiya etiladi.

**O'zbekistondagi ichki ko'chish** haqidagi ma'lumotlar ham xalqaro tashkilotlar va majburiy migratsiyaga qaratilgan loyihalar ma'lumotlariga asoslanadi. Mavjud manbalar ichki ko'chish va ichki ko'chirilgan shaxslar (IKS) holatlarining umumiy sonini ajratishga imkon beradi, bu ko'chish holatlari tabiati va davriyligini tasniflash imkonini beradi. Muayyan yillar uchun ma'lumotlarning yetishmasligi bo'shliq hosil qilishi mumkin. Biroq, milliy va xalqaro tadqiqot guruhlari tomonidan olib boriladigan kelajakdagi tadqiqotlar jinsi, yoshi, bandlik holati va ta'lim darajasini hisobga olishi kerak. Ushbu ma'lumotlar ichki ko'chishlarning salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

**O'zbekistondagi ichki migratsiya** to'g'risidagi ma'lumotlar ichki statistik ma'lumotlar va O'ZSTAT tomonidan har chorakda va yillik asosda tuziladigan hisobotlardan va IIV kabi milliy tarmoq idoralari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan olinadi. Mavjud ma'lumotlar ichki migrantlarni o'rganishga yordam beradi, ularning jinsi va ko'chish joyiga alohida e'tibor beradi. Bir qator tadqiqotlar O'zbekistondagi ichki migratsiyaning o'ziga xosligi va nozik jihatlarini tushunishga yordam beradi. Biroq, ichki migrantlar soni, shuningdek, ularning jinsi va yoshi bo'yicha demografik taqsimotida bo'shliqlar mavjud bo'lib, ularni batafsil tahlil qilish lozim.

O'zbekistonda mavjud ma'lumotlardan foydalangan holda migratsiya masalalari bo'yicha **Katta ma'lumotlar (Big Data)** mavjud emas. Bunday tadqiqotlarni o'tkazish katta salohiyat talab etadi hamda tashqi migratsiya oqimi va mamlakat ichidagi ichki mobillikni tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

**Pul o'tkazmalari to'g'risidagi ma'lumotlar** muntazam va tizimli ravishda yig'ilib, e'lon qilinadi. Pul o'tkazmalari oqimi bo'yicha yillik ma'lumotlar xalqaro moliya institutlari tomonidan muntazam ravishda va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (O'MB) tomonidan har uch oyda bir marta yangilanadi. 2022-yilgacha Rossiya Federatsiyasidan O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi to'g'risidagi ma'lumotlar Rossiya Federatsiyasi ma'lumotlar to'plamida ham mavjud edi. Milliy va xalqaro institutlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning nomuvofiqligini pul o'tkazmalari oqimidagi asosiy kamchiliklardan biri, deb aytish mumkin. Ushbu nomuvofiqlikning mumkin bo'lgan sababi turli xil hisoblash usullari bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, mavjud ma'lumotlar migrantlar tomonidan amalga oshirilgan pul o'tkazmalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi haqida umumiy ma'lumot beradi.

## 2. KIRISH

### 2.1 FOYDALANISH SOHASI

O‘zbekistonda, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida migratsiyaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘lumotlardagi bo‘shliqlarni tizimli ravishda aniqlash maqsadida IOM Yevropa Ittifoqi (EU) tomonidan moliyalashtirilgan “Migratsiya sohasidagi tahlil va dasturlar uchun mintaqaviy dalillar” (REMAP – Regional Evidence for Migration Analysis and Policy)<sup>1</sup> loyihasi doirasida migratsiya ma‘lumotlari manbalarini o‘rganish tadqiqoti amalga oshirildi.

Ushbu hisobot migratsiya ma‘lumotlari manbalarini o‘rganish tadqiqotining asosiy natijalarini taqdim etadi va migrantlar, immigrantlar, emigrantlar, qaytgan migrantlar, noqonuniy migrantlar, O‘zbekistonga qabul qilingan qochqinlar, O‘zbekistondan ketgan qochqinlar, ichki ko‘chirilganlar, ichki migrantlar va pul o‘tkazmalari to‘g‘risidagi mavjud ma‘lumotlar turlari to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar kim tomonidan to‘planishi haqida asosiy xulosalarni yoritadi.

Hisobot, shuningdek, mazkur migratsiya yo‘nalishlarining har biri uchun asosiy ma‘lumotlar bo‘shliqlarini yoritadi. Ma‘lumotlardagi asosiy bo‘shliqlar immigrantlar soni to‘g‘risidagi to‘liq bo‘lmagan ma‘lumotlar, emigrantlar soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni guruhlariga ajratishning imkonsizligi, qaytib kelgan migrantlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni muntazam ravishda yig‘ishning imkoni yo‘qligi, noqonuniy migrantlar to‘g‘risidagi to‘liq bo‘lmagan statistika va ichki ko‘chirilgan shaxslarning batafsil ijtimoiy profili mavjud emasligi kabi bo‘shliqlarni qamrab oladi.

### 2.2 MIGRATSIYA MA‘LUMOTLARINI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

Ushbu hisobotning maqsadi O‘zbekistonda, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida migratsiyaning bir qancha yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘lumotlardagi bo‘shliqlarni muntazam ravishda aniqlashdan iborat. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun IOMning tegishli mamlakat vakolatxonalarida tashqi konsultantlar ko‘magida maxsus metodologiyani ishlab chiqdi. Ushbu hisobot uchun ishlab chiqilgan Migratsiya ma‘lumotlarini tahlil qilish metodologiyasi (MMTQM) migratsiya ma‘lumotlari bo‘yicha sifatli ma‘lumotlarni tizimli ravishda aniqlash va ma‘lumotlardagi bo‘shliqlar, shuningdek, turli yo‘nalishdagi ma‘lumotlar mavjudligi haqida aniq tushunchaga ega bo‘lishga qaratilgan. MMTQM jarayoni so‘nggida qanday ma‘lumotlar mavjudligi, qanday ma‘lumotlar yetishmayotganligi va tegishli dasturlarni ishlab chiqishda qaysi usullardan foydalanish lozimligi ayon bo‘ladi.

Metodologiya butun jarayonda shaffoflikni birinchi o‘ringa qo‘yish orqali ishlab chiqilgan. Shaffoflik metodologiyaning takroriy qo‘llanilishini ta‘minlashi lozim, ya‘ni turli tadqiqotchilar ushbu ma‘lumotlarni tahlil qilish natijasida bir xil natijalarni olishi hamda bir xil metodologiyadan foydalanadigan turli tadqiqotchilar bir xil sharoitlarda bir xil natijalarga ega bo‘lishi lozim. Shaffoflik va takrorlanuvchanlik ilmiy qat‘iylik va ochiq tadqiqot uchun juda muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuv yordamida MMTQM boshqa mamlakatlar va holatlarda ma‘lumotlar bo‘shliqlarini o‘rganish uchun moslashtirilishi va qo‘llanilishi mumkin. Ushbu bo‘limda metodologik usullar va jarayonlar batafsil, aniq va tushunarli tarzda tushuntiriladi.

Dastlab, 10 ta bo‘limga bo‘lingan, migratsiyaning barcha turlarini o‘z ichiga olgan Excel fayli yaratildi. Keyin fayl bir nechta mutaxassislar tomonidan ko‘rib chiqilib, ushbu hamkorlikda ishlaydigan xalqaro jamoalarning fikr-mulohazalarini o‘z ichiga olgan seminar orqali aniqlandi. Tahlil qilingan migratsiya turlari ham ushbu hisobot tuzilmasida aks ettirilgan va immigratsiya, emigratsiya, qaytish migratsiyasi, ichki migratsiya, noqonuniy migratsiya, ichki ko‘chish, mamlakatdan ketgan qochqinlar, mamlakatda joylashgan qochqinlar, pul o‘tkazmalari va katta ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘limlarning har birida ikkita asosiy jadval mavjud: a) ma‘lumotlar mavjudligi jadvali va b)-yillar bo‘yicha manbalar jadvali. 2018-2023-yillar oralig‘idagi har bir-yil uchun ma‘lumotlar mavjudligi jadvalida tadqiqotchi ma‘lumotlar mavjudligi va foydalanish mumkinligi, qisman mavjud yoki mavjud emasligini ko‘rsatishi kerak edi. Bu jadval qo‘shimcha ravishda migrantlar soni va oqimiga bo‘lingan. Ularning soniga kelsak, tadqiqotchi aholi sonini (masalan, migrantlar soni) va ularning jinsi, mezbon mamlakatdagi joylashuvi, tug‘ilgan joyi, yoshi, ish holati va ma‘lumot darajasi bo‘yicha taqsimlanishini tadqiq qilgan. Migratsiya oqimi uchun tadqiqotchi migratsiya oqimining hajmini, uning jins bo‘yicha taqsimlanishi va kelib chiqish mamlakati bo‘yicha taqsimlanishini ko‘rsatgan. Bo‘limlar o‘rtasida taqsimot biroz farq qilsa-da, turli xil migratsiya turlari uchun umumiy yondashuv bir xil bo‘lib qoldi.

<sup>1</sup> MTM REMAP loyihasining umumiy maqsadi Afg‘oniston, Bangladesh, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Pokiston, Tojikiston va O‘zbekistondagi migratsiya va mobillik bo‘yicha gumanitar va rivojlanish sa‘y-harakatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan.

## 1-JADVAL: MA'LUMOTLAR MAVJUDLIGI NAMUNA JADVALI

Yil	Soni	Jins bo'yicha Soni	Qabul qiluvchi davlat-dagi joylashuvi bo'yicha soni	O'z mam-la-katida kelib chiqish joyi bo'yicha soni	Yosh bo'yicha soni	Bandlik holati bo'yicha soni	Ta'lim darajasi bo'yicha soni	Oqimlar	Jins bo'yicha oqim	Kelib chiqish mam-lakati bo'yicha oqim
2023										
2022										
2021										
2020										
2019										
2018										

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning har biri uchun bir nechta manbalarni aniqlash mumkin bo'lganligi sababli, yillar bo'yicha manbalar jadvali tuzildi. Ushbu jadvalda tadqiqotchi ma'lumotlar mavjudligi jadvalining bir yoki bir nechta ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotni o'z ichiga olgan barcha manbalarni aniqladi. Ushbu jadval foydalanilgan adabiyotlar jadvaliga juda o'xshaydi, uning misolini quyida topish mumkin.

## 2-JADVAL: YILLIK JADVAL BO'YICHA MANBALAR NAMUNASI

Manba	Muallif	Tashkilot	So'rov-noma nomi va mavzusi-	So'rov-nomaga havola-	Ma'lumotlar manbai (ro'yxatga olish/ miqdoriy so'rov/ sifat ma'lumotlari/ ma'muriy ma'lumotlar/ boshqa ma'lumotlar)	Tizim (qanchalik tez-tez bajariladi?)	Ommaga ochiqligi	Mavjud kam-chiliklar	Ishlatilgan ta'rif	Til

Ushbu tadqiqotning maqsadi migratsiya haqidagi ma'lumotlardagi bo'shliqlarni aniqlashga qaratilgan puxta va tuzilgan adabiyotlarni ko'rib chiqishdir. Tadqiqot guruhi bir nechta mamlakatlar bo'ylab taqsimlanganligi sababli, umumiy ish jarayoni va ta'riflarning umumiy ro'yxati mavjudligini ta'minlash uchun ushbu tadqiqotni boshlashdan oldin turli uchrashuvlar o'tkazildi. Ushbu uchrashuvlar davomida biz MMTQM ni yakunlashning ikki tomonlama strategiyasini – boshlang'ich tadqiqot va tegishli guruhlar manbalarini o'rganish usuli ishlab chiqildi

Boshlang'ich tadqiqot davomida har bir bo'lim uchun tadqiqotchi tomonidan qidiruv so'zlari ro'yxati tuzildi, masalan: O'zbekistondagi immigratsiya, O'zbekistonga migratsiya, O'zbekistonga mehnat migratsiyasi, O'zbekistondagi mehnat migrantlari, O'zbekistondagi mobillik va boshqalar. Keyinchalik bu ro'yxat mahalliy tillar bilan bir qatorda rus tiliga ham tarjima qilindi hamda Google va Google Scholar da qo'llanildi. Har bir qidiruv tizimi uchun dastlabki 5-10-sahifadagi barcha maqolalar ko'rib chiqildi, tegishli va mavjud ma'lumotlar asosida tanlandi.

Tegishli maqolalar aniqlangandan so'ng, ular batafsil o'qildi, yuklab olindi va ma'lumotlar-yillar bo'yicha manbalar jadvaliga kiritildi. Bu olti bosqichli jarayon bo'ldi: 1) kalit so'zlar ro'yxatini tuzish va uni tegishli tillarga tarjima qilish, 2) tegishli ma'lumotlarni topish uchun Google va Google Scholarda ushbu kalit so'zlardan foydalanish, 3) Google va Google Scholarning dastlabki 5-10-sahifalaridagi barcha maqolalarni ko'rib chiqish va tegishli maqolalarni tanlash, 4) tegishli hujjatlarni o'qish va yuklab olish, 5) yillar bo'yicha manbalar jadvalini yaratish, 6) ma'lumotlar mavjudligi jadvalini yaratish. Ushbu yondashuvga qo'shimcha ravishda, tadqiqotchi tomonidan ushbu hisobotning o'nta bo'limining har birida keltirilgan tegishli veb-saytlar va ma'lumotlar omborlarini to'g'ridan-to'g'ri tekshirildi.

Ushbu tadqiqot jarayoni tegishli guruhlar manbalarini o'rganish va asosiy manfaatdor tomonlar bilan ma'lumot almashish orqali yanada mustahkamlandi. Hukumat tashkilotlari ma'lumotlari va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari barcha uchun ochiq bo'lmasligi mumkin. Biroq, bu ma'lumotlar IOMga rasmiy uchrashuvlar va rasmiy so'rovlar taqdim etilishi mumkin. Shu sababli, IOM jamoasi hukumat va xalqaro tashkilotlarda mahalliy, milliy va mintaqaviy darajadagi markazlar ro'yxatini tuzdi. Manfaatdor tomonlar bilan bog'lanib, tegishli ma'lumotlarni oldi. Tegishli organlardan yetishmayotgan ma'lumotlar rasmiy tarzda so'ralib, iloji boricha, ushbu ma'lumotlar hisobotga kiritilgan.

Umuman olganda, mazkur adabiyotlarni ko'rib chiqish amaliyoti tegishli guruhlar manbalarini o'rganish jarayoni bilan birgalikda O'zbekistonda va mintaqadagi boshqa mamlakatlarda ma'lumotlar mavjudligi va ulardagi bo'shliqlarga oydinlik kiritdi. Ushbu hisobot O'zbekiston bo'yicha asosiy xulosalarni taqdim etadi.

## 2.3 CHEKLOVLAR

Yuqorida tavsiflangan metodologik yondashuvga qaramay, ushbu metodologiya bir qator cheklovlarga ega. Birinchidan, MMTQM turli xil migratsiya turlarini va turli migratsiya ko'rsatkichlarini qamrab olgan bo'lsa-da, bu ma'lumotlar bo'shlig'ini keng qamrovli tahlil qilish imkonini bermaydi. IOM faqat asosiy masalalarga va tanlangan migrantlar guruhiga e'tibor qaratdi. Muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, migratsiya omillari, kelajakdagi migratsiya rejaları va migrantlarning zaifliklari kabi barcha migratsiya guruhlari yoki migratsiya ko'rsatkichlari vaqt cheklovlari tufayli ushbu tadqiqotga kiritilmagan.

Yana bir cheklov tadqiqot bo'yicha har bir alohida tadqiqotchining yondashuvi va maqolalarni kiritish yoki chiqarib tashlash haqidagi fikrlaridan kelib chiqishi mumkin. Cheklangan qo'shish yoki istisno qilish qoidalari bilan bir qatorda alohida tadqiqotchining ma'lum bir ma'lumot manbasini kiritish yoki kiritmaslik to'g'risidagi qaror qabul qilishi inobatga olindi. Shaxsiy yondashuvlarni uyg'unlashtirish uchun haftalik yig'ilishlar o'tkazilib, ularda natijalar o'rtoqlashildi va adabiyotlar muhokama qilindi.

Bundan tashqari, ba'zi manbalar boshqalarga qaraganda ko'proq yoki kamroq ommabop bo'lishi mumkin, turli tillarda qidiruv so'zlarining to'liq ro'yxatini yaratish va ular bilan ishlashga qaramay, ba'zi maqolalar yoki ma'lumotlar to'plami ko'rib chiqilgan, biroq ushbu sharhga kiritilmagan bo'lishi mumkin. Ba'zida xalqaro miqyosda qo'llaniladigan migratsiya toifalari va ta'riflari milliy ta'riflarga mos kelmaydi yoki mahalliy tillarga tarjima qilinmaydi. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda tarjima qilish yoki o'rnatish qiyin bo'lgan mamlakat darajasida qo'llaniladigan migratsiya toifalari bo'lishi mumkin. IOM ta'riflari, xalqaro ta'riflar va milliy ta'riflarni aniqlash orqali ushbu lingvistik chalkashlikni yumshatishga harakat qilindi.

Shuningdek, 2018–2023-yillar vaqt chegarasi uzoq muddatli migratsiya jarayonlari yoki tarixiy shakllarni o'tkazib yuborishi mumkin. Ushbu cheklovni ichki mobillik kabi migratsiyaning muayyan turlari uchun uzoqroq muddatlarni belgilash orqali yumshatishga harakat qilindi.

## 3. XALQARO MIGRATSIYA

### 3.1 IMMIGRATSIYA

O'zbekistondagi immigratsiya ma'lumotlari bo'yicha joriy ma'lumotlar bazasi ichki va xalqaro manbalar asosida tuzilgan. Bularga ma'muriy va statistik ma'lumotlar manbalari, BMT agentliklarining ma'lumotlar to'plami va sifatli tahlillar, shuningdek, O'zbekiston va xorijiy milliy institutlar tomonidan tarqatilgan to'plamlar kiradi. Mahalliy ma'lumotlar to'plami va manbalari o'zbek, rus va ingliz tillarida, xalqaro ma'lumotlar to'plamlari esa faqat ingliz tillarida mavjud. Immigratsiya bo'yicha jami 22 ta manba to'plangan va ko'rib chiqilgan.

O'zbekistondagi immigrantlar soni haqidagi eng so'nggi ma'lumotlarni BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy masalalar departamenti (UNDESA) tomonidan taqdim etilgan qo'llanmalar va ma'lumotlar to'plamida topish mumkin. UNDESA ma'lumotlar to'plamida 1995-, 2000-, 2005-, 2010-, 2015-, 2017-, 2019- va 2020-yillar uchun yoshi, jinsi va kelib chiqish mamlakati bo'yicha xalqaro migrantlarning hisob-kitoblari mavjud. Xalqaro migrantlar sonini ro'yxatga olish, aholi reyestrlari va milliy vakillik so'rovlariga asoslanadi. (UNDESA, 2020). Birlashgan Millatlar Tashkilotining Onlayn ma'lumotlar xizmati har-yili 230 dan ortiq milliy statistika idoralari yuboriladigan so'rovnomalar to'plami orqali to'plangan mamlakatga kirish migratsiya oqimlari bo'yicha BMTning demografik statistikasi ma'lumotlar bazasiga kiritilishini ta'minlaydi. O'zbekiston bo'yicha 2010-2022-yillar uchun ma'lumotlar mavjud. Onlayn ma'lumotlar bazasi immigratsiya ma'lumotlarini yil, fuqarolik mamlakati va jinsi bo'yicha ajratish imkonini beradi (UNDATA, 2023a).


2021-yil uchun O'zbekistondagi ikki tomonlama immigrantlar sonini migratsiya va rivojlanish bo'yicha ilmiy ekspertiza global markazi – Migratsiya va taraqqiyot bo'yicha bilimlar hamkorlik tashkiloti (KNOMAD) taqdim etgan ma'lumotlar to'plamidan olish mumkin. Ma'lumotlar faqat kelib chiqish mamlakat bo'yicha ajratilgan (KNOMAD, 2021). Immigrantlar soni haqidagi so'nggi ma'lumotlarning umumiy ko'rinishi IOM tomonidan xalqaro va milliy migrantlar to'plami va hisobotlari, shu jumladan UNDESA (IOM, 2023a; 2023b) tahlili orqali taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'ZSTAT) xorijdan kelayotgan migrantlar oqimi bo'yicha ma'muriy ma'lumotlarning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Immigratsiya oqimini hisoblash kelganlarni statistik ro'yxatga olishning "talon tizimi"ga asoslanadi. Talonlar ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tizimli ravishda tuziladi (O'ZSTAT, 2022a). O'ZSTAT 2018-2022-yillarni o'z ichiga olgan yilnomalar, shuningdek, 2007-yildan boshlab har choraklik hisobot va risolalar orqali immigrantlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatadi. Hisobotlar va risolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida, yillik jurnallar esa faqat o'zbek va rus tillarida chop etiladi. Xorijdan kelganlar soni bo'yicha yangilangan demografik ko'rsatkichlar O'ZSTAT ochiq ma'lumotlar bazasida mavjud. Ma'lumotlar to'plamida immigrantlar soni jinsi, kelib chiqish mamlakati va borish hududi bo'yicha ko'rsatilgan. Biroq, ajratilgan ma'lumotlarning mavjudligi yildan-yilga o'zgarib turadi. Immigratsiya ma'lumotlari jinsi bo'yicha faqat 2021- va 2022-yilgi hisobotlarda tahlil qilinadi. Onlayn yoki oflayn rejimda sotib olinishi kerak bo'lgan yillik kitoblar bundan mustasno, barcha ma'lumotlar to'plamini bepul yuklab olish mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) a'zo davlatlarning Migratsiya organlari rahbarlari kengashining (MORK) migratsiya vaziyatini ko'rib chiqish bo'yicha xulosalari 2018-2021-yillardagi immigrantlar oqimi bo'yicha sifat va miqdoriy ma'lumotlarni to'ldiradi (MORK, 2018, 2019, 2020, 2021).

O'zbekiston 2020-yilda 1,16 million xalqaro migrantni qabul qildi (UNDESA, 2020a). Uning yarmidan kamrog'i (47%) erkaklar va 53 foizi ayollar edi (UNDESA, 2020d). Immigrantlarning qariyb 75 foizi Rossiya Federatsiyasidan (871 047 nafar migrant), 18 foizi MDHning boshqa davlatlaridan va 7 foizi boshqa mamlakatlardan kelgan (UNDESA, 2020b). Immigrantlarning qariyb 57 foizi mehnatga layoqatli yoshdagi (25–64 yosh), 6 foizi bolalar (0–14 yosh) va 9 foizi yoshlar (15–24 yosh) edi. Kexsa odamlar guruhi (+65 yosh) immigrantlar umumiy sonining 28,3 foizini tashkil etgan (UNDESA, 2020d).


## 1-RASM: KELIB CHIQISH MAMLAKATI BO'YICHA O'ZBEKISTONDAGI IMMIGRANTLAR SONI, 2020-YIL (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: UNDESA, 2020b

Mavjud milliy va xalqaro statistik ma'lumotlar manbalari so'nggi 23 yil ichida O'zbekistonga migrantlar oqimini kuzatish imkonini beradi. Xususan, O'ZSTAT demografik ko'rsatkichlari O'zbekistondagi immigrantlar oqimini kelish hududlari bo'yicha saralashni osonlashtiradi. O'ZSTAT o'z hisobotlarida, yilnomalarida va ochiq ma'lumotlar to'plamida immigratsiya oqimlarining turli ta'riflaridan foydalanadi: chet eldan kelgan migrantlar, doimiy yashash uchun O'zbekistonga kelganlar, chet eldan kelgan yoki kelayotganlar. 2022-yilda O'zbekistonga doimiy yashash maqsadida 2291 nafar chet el fuqarosi kelgan (O'ZSTAT, 2023a). 2022-yilda Rossiya Federatsiyasidan kelgan migrantlar immigrantlar oqimining 35 foizini tashkil etgan. Immigrantlarning deyarli 33 foizi Qozog'istondan, 13,1 foizi Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston fuqarolari, 19 foizi esa boshqa davlatlardan kelganlar. (O'ZSTAT, 2022a). Ularning qariyb 60 foizi Toshkent shahriga joylashishgan (O'ZSTAT, 2023a).

## 2-RASM: IMMIGRANTLAR OQIMI, 2018-2020-YILLAR (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: O'ZSTAT, 2023a

Aniqlangan manbalarni o'rganish migrantlar soni va oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi bo'yicha bir qator bo'shliqlarni aniqlash imkonini berdi. Xususan, jinsi bo'yicha immigrantlar soni haqidagi ma'lumotlar faqat 2019-, 2020- va undan oldingi-yillar uchun UNDESA xalqaro migrantlar fondi ma'lumotlar to'plamida mavjud edi. 2018-2023-yillar va oldingi yillardagi kelib chiqish mamlakati, kasbi, bandlik holati va ta'lim darajasi bo'yicha immigrantlar to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq bo'lmagan yoki aniqlangan manbalarning birortasida qayd etilmagan.



O'ZSTAT manbalari tekshiruv natijasida migratsiya ma'lumotlarini taqdim etishda nomuvofiqliklar aniqlangan. Masalan, 2019-, 2020- va 2023-yillardagi yillik hisobotlarda jins bo'yicha immigrantlar oqimi haqida ma'lumotlar mavjud emas.

### 3-JADVAL: O'ZBEKISTONGA IMMIGRATSIYA BO'YICHA MAVJUD MA'LUMOTLARDAGI BO'SHLIQLAR, 2023-YIL

O'zbekistonga immigratsiya	Eng so'ng-gi mavjud ma'lumotlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
# immigrantlar							
# jins bo'yicha immigrantlar							
# immigrantlar mezbon mamlakatdagi joylashuvi bo'yicha							
#immigrantlar o'z mamlakatida kelib chiqish joyi bo'yicha							
# yosh bo'yicha immigrantlar							
# bandlik maqomi bo'yicha immigrantlar							
# immigrantlar ta'lim darajasi bo'yicha							
# immigrantlar oqimi							
# jins bo'yicha immigrantlar oqimi							
# kelib chiqish mamlakati bo'yicha immigrantlar oqimi							

## 3.2 EMIGRATSIYA

O'zbekistondan emigratsiya haqidagi ma'lumotlarni qator manbalarda, jumladan, tegishli milliy davlat organlari, BMT agentliklari, boshqa xalqaro tashkilotlar va ilmiy maqolalarda topish mumkin. Ushbu sharhda 2018-2023-yillar va undan oldingi davrlar uchun emigratsiya haqida ma'lumotga ega 42 ta manba aniqlandi. Xalqaro manbalar asosan ingliz tilida, milliy guruhlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar to'plami esa o'zbek, rus va ingliz tillarida mavjud.

O'zbekistondan ketgan emigrantlar soni haqidagi eng so'nggi ma'lumotlar UNDESA tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar to'plamidan olingan. UNDESA ma'lumotlar to'plami 1995-, 2000-, 2005-, 2010-, 2015-, 2017-, 2019- va 2020--yillar uchun yoshi, jinsi va kelib chiqish mamlakati bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni taqdim etadi. Xalqaro migrantlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish, aholi reyestrlari va milliy vakillik so'rovlaridan olingan (UNDESA, 2020). 2021-yil uchun O'zbekistondan ikki tomonlama emigrantlar sonini KNOMAD ma'lumotlar to'plamidan olish mumkin. Ma'lumotlar faqat kelib chiqish mamlakat bo'yicha taqsimlangan (KNOMAD, 2021).

Milliy agentliklar emigratsiya raqamlari tasnifiga kiruvchi ma'lumotlarni tarqatishda birinchi navbatda mehnat migratsiyasiga e'tibor berishadi. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (BKQV) va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMMA) O'zbekistondan chet elga ketgan mehnat emigrantlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash bo'yicha asosiy tuzilmalar hisoblanadi. BKQV va TMMMAning choraklik va yillik hisobotlari va ma'lumotlar to'plamlari onlayn shaklda mavjud. Ma'lumotlar mehnat migrantlarining umumiy soni, migrantlarning kelib chiqish joyi va boradigan davlati, shuningdek, TMMMA va boshqa xususiy bandlik agentliklari tomonidan yollangan xodimlar soni bo'yicha ajratilishi mumkin (TMMMA, 2023). Bundan tashqari, mehnat migrantlari sonining mintaqaviy taqsimoti Mehnat migratsiyasi portalida (MMP, 2023) mavjud. Oxirgi marta 2023-yil oktabr oyida yangilangan mehnat migrantlari soni ichki ochiq ma'lumotlar portalida topilgan, bu yerda axborot manbai sifatida BKQV qayd etilgan (Ochiq ma'lumotlar portal, 2023). Garchi uch manba ham yaqin vaqt oralig'ida yangilangan bo'lsa-da, ular emigrantlar soni bo'yicha turli xil ma'lumotlarni taqdim etadi. Boshqa bir BKQV ma'lumotlar to'plami chet elda ishlaydigan fuqarolar sonini (oqimlari), jinsi, kelib chiqish joyi va boradigan mamlakati bo'yicha taqdim etadi (BKQV, 2023). Barcha ma'lumotlar o'zbek tilida hamda Ochiq ma'lumotlar portal, rus va ingliz tillarida ham yuritiladi.

Emigrantlarning umumiy soni, sof emigratsiya darajasi va o'zbek emigrantlari uchun asosiy migratsiya yo'laklarining tahlili IOM hisobotlarida keltirilgan. Ular xalqaro va milliy agentliklar, jumladan, UNDESA va O'ZSTAT (IOM, 2023a; 2023b) ma'lumotlar to'plamiga asoslanadi. Bundan tashqari, IOM tomonidan qo'llab-quvvatlangan va Markaziy Osiyodagi mehnat migratsiyasiga bag'ishlangan yana bir hisobotda 2020-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridan Rossiya Federatsiyasidagi mehnat migrantlari bo'yicha ayrim raqamlar keltirilgan. Hisobot mehnat migratsiyasining turli jihatlariga, jumladan, ishga qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilishda ish beruvchilar va mehnat migrantlarining maqsadlari, ehtiyojlari va xatti-harakatlariga ahamiyat beradi (IOM, 2020).

Emigrantlar oqimiga kelsak, BMT Ma'lumotlar portal, emigratsiya oqimlari bo'yicha BMTning demografik statistika ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkonini beradi. Ma'lumotlar milliy hokimiyat organlari tomonidan BMT Statistika bo'limiga taqdim etilgan so'rovnoma to'plamidan olingan. Xususan, O'zbekiston uchun emigratsiya oqimi bo'yicha 2014-2022-yillar ma'lumotlari mavjud. Onlayn ma'lumotlar bazasi-yil, jins, yosh va boradigan mamlakat bo'yicha ajratish imkonini beradi (UNDATA, 2023b). Bundan tashqari, 2012-2022-yillarga mo'ljallangan O'zbekistondan emigrantlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarni Xalqaro mehnat tashkilotining (IOM) mehnatga layoqatli yoshdagi xorijiy fuqarolar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlar to'plamidan (IOM, 2023) olish mumkin.

Immigrantlar oqimini kuzatish kabi, O'ZSTAT jo'nab ketganlarning statistik qayd qilish bo'yicha "talonlar" ma'lumotlaridan emigrantlar oqimini hisoblash uchun foydalanadi. O'zbekistondan chet elga chiqqanlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlar O'ZSTAT tomonidan o'zining doimiy hisobotlari va yillik jurnallarida jamlanadi. Bundan tashqari, emigratsiya oqimlari O'ZSTAT ochiq ma'lumotlar bazasida mavjud. Ma'lumotlar to'plami jinsi, borish mamlakati va kelib chiqish joyi bo'yicha emigrantlar soni haqida batafsil ma'lumot beradi. Emigratsiya oqimlarini aniqlash uchun O'ZSTAT "xorijdan kelganlar", "O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketganlar", "doimiy yashash uchun jo'nab ketganlar", "ketganlar" yoki "chiqib ketganlar" kabi turli xil ta'riflardan foydalanadi. Barcha ma'lumotlar bepul va yuklab olish mumkin, onlayn yoki oflayn rejimda sotib olinadigan demografik yilnomalar bundan mustasno. Hisobotlar va broshyuralar o'zbek, rus va ingliz tillarida, yillik jurnallar esa faqat o'zbek va rus tillarida taqdim etiladi.

2018-2022-yillarda O'zbekistondan Rossiya Federatsiyasiga ko'chib ketganlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarni Rossiya Federatsiyasi Federal Davlat statistika xizmati (ROSSTAT)dan ham olish mumkin bo'lib, u emigratsiya hududi, aholi punkti turi (shahar/qishloq), ko'chish maqsadi, yosh guruhlari va ta'lim darajasi bo'yicha segmentlangan ma'lumotlarni taqdim etadi. (ROSSTAT, 2022). Qozog'istondagi O'zbekiston fuqarolari haqidagi shunga o'xshash ma'lumotlarni Qozog'iston statistik manbalaridan olish mumkin (QSB, 2023a).

2018-2022-yillarda O'zbekistondan Rossiya Federatsiyasiga ko'chib ketganlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarni Rossiya Federatsiyasi Federal Davlat statistika xizmati (ROSSTAT)dan ham olish mumkin bo'lib, u emigratsiya hududi, aholi punkti turi (shahar/qishloq), ko'chish maqsadi, yosh guruhlari va ta'lim darajasi bo'yicha segmentlangan ma'lumotlarni taqdim etadi. (ROSSTAT, 2022). Qozog'istondagi O'zbekiston fuqarolari haqidagi shunga o'xshash ma'lumotlarni Qozog'iston statistik manbalaridan olish mumkin (QSB, 2023a).


AQSh Milliy Xavfsizlik Departamenti yilnomalarida 2013-2022-yillar davomida doimiy yashash maqomini olgan O'zbekiston fuqarolari haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Mavjud ma'lumotlar ro'yxatga olish sinfi va yashash joyi yoki hududi bo'yicha guruhlangan (USIXB, 2023). YEVRSTAT ma'lumotlar bazasi Yevropa Ittifoqining Statistika idorasi (YEVRSTAT) O'zbekiston fuqarolarining Yevropaga immigratsiya oqimini kuzatib boruvchi to'liq manba hisoblanadi (YEVRSTAT, 2023a, 2023b). Ushbu uchinchi mamlakatlarning barcha ma'lumotlar to'plamlari milliy emigratsiya ma'lumotlarini tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin. Jahon banki guruhi (JBG), Markaziy Osiyo bo'yicha tahliliy hisobotlar byurosi va Praga jarayonining keng qamrovli tadqiqot hisobotlari, O'zbekistondan emigratsiya haqidagi ma'lumotlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega (Seitz, 2019; Gulina, 2021; PRP, 2015). Ular O'zbekistondan emigratsiya jarayonining turli jihatlarini qamrab oladi va O'zbekistondagi mehnat migratsiyasi jarayonlarini keyingi tadqiqotlar uchun qimmatli manba sifatida foydalanish mumkin. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy nashrlarida ham emigratsiya muammolari chuqur tahlil qilingan (Mamedov, 2023; Mamadaliyeva, 2023; Yoqubov, 2022). Ushbu manbalarning barchasi hisobotning "Ma'lumotnoma" bo'limida aks ettirilgan.

2020-yilda xorijdagi O'zbekiston fuqarolari soni 2 milliondan ortiq kishini, jumladan, 1 million 51 ming erkak va 976 ming ayolni tashkil qilgan (UNDESA, 2020a). Ushbu aholining yarmidan ko'pi, ya'ni 1 million 146 ming kishi Rossiya Federatsiyasida yashagan. Qo'shni Qozog'istonga 296,5 mingdan ortiq, Ukrainaga 223,5 ming va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga 83,5 ming kishi ko'chib o'tgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga 78 mingga yaqin, AQShga 63,5 ming va Koreya Respublikasiga 55 mingdan ortiq o'zbek migrantlari ko'chib ketgan. Qolgan 83 ming O'zbekiston fuqarosi turli mamlakatlarda istiqomat qilgan. (UNDESA, 2020c).

O'ZSTAT ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekistondan 221,3 ming nafar emigrant chiqib ketgan, ulardan 60 foizi (132,8 ming) ayollar va 40 foizi (88,5 ming) erkaklardir. ROSSTAT 2022-yil holatiga ko'ra Rossiya Federatsiyasida O'zbekistondan 2 million 48 ming nafar chet ellik migrantni qayd etgan. Ularning deyarli 71 foizi Rossiya Federatsiyasiga pul ishlash uchun kelgan, 16 foizi xususiy biznes, 3 foizi o'qish, 9 foizi avtoulovlarga texnik xizmat ko'rsatish xodimi sifatida tayinlanganligini bildirgan (ROSSTAT, 2023a).

2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, TMMA ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning 2 million 118 mingga yaqin fuqarosi xorijda mehnat qilgan. Ularning deyarli 75 foizini (1 million 596,7 ming nafar) erkaklar va 25 foizini (521,8 ming nafar) ayollar tashkil etdi. Shu bilan birga, 33,2 foizini (702,9 ming nafar) yoshlar tashkil etgan. Mehnat migrantlarining asosiy qismi (1,3 million) Rossiya Federatsiyasida, 223 ming nafari Qozog'istonda, 113,1 ming nafari Turkiyada ishlagan va 66,8 ming nafari Koreya Respublikasida bo'lgan (TMMA, 2023). Mehnat emigratsiyasining eng yuqori ko'rsatkichlari Andijon (240 ming), Samarqand (224 ming) va Farg'ona (227 ming) viloyatlariga to'g'ri keladi (LMP, 2023).

### 3-RASM: BORUVCHI MAMLAKATLAR BO'YICHA O'ZBEKISTONLIK EMIGRANTLAR SONI, 2020-YIL (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: UNDESA, 2020b


Milliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kollej darajasida oliy va kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan migrantlar soni ortib bormoqda. Bu nisbatan yuqori malaka talab qiladigan lavozimlarda mehnat migrantlariga talab ortib borayotgani bilan bog'liq. 2022-yilda BKQV Mehnat Bozori Tadqiqot Instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, migrantlarning 6,3 foizi kasb-hunar ta'limi (kollej), 27,6 foizi o'rta, 6,7 foizi oliy ma'lumotga ega. Qolgan 59,4% migrantlarning ta'lim darajasi ko'rsatilmagan (Mamadaliyeva, 2023).

O'ZSTAT ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda chet elga emigrantlar oqimi 2018-yildan beri eng past darajaga tushgan. Rossiya Federatsiyasiga yillik emigratsiya oqimi 2021-yildagi 6 135 kishidan 2022-yilda 1 441 kishiga to'rt baravar kamaygan. Xuddi shu davrda Qozog'istonga emigratsiya oqimi 1,6 baravarga, 2021-yildagi 11 406 tadan 2022-yilda 6 985 taga qisqargan (TIV, 2023a). 2020-yilda xorijdagi O'zbekiston fuqarolari soni 2 milliondan ortiq kishini, jumladan, 1 million 51 ming erkak va 976 ming ayolni tashkil qildi (UNDESA, 2020a). Ushbu aholining yarmidan ko'pi, ya'ni 1 million 146 ming kishi Rossiya Federatsiyasida yashagan. Qo'shni Qozog'istonga 296,5 mingdan ortiq, Ukrainaga 223,5 ming va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga 83,5 ming kishi ko'chib o'tgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga 78 mingga yaqin, AQShga 63,5 ming va Koreya Respublikasiga 55 mingdan ortiq o'zbek migrantlari ko'chib kelgan. Qolgan 83 ming O'zbekiston fuqarosi turli mamlakatlarda istiqomat qilgan. (UNDESA, 2020c).

Biroq, O'ZSTAT (TIV, 2023a) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston O'zbekistondan emigratsiyaning asosiy yo'nalishlari bo'lib qolmoqda va bu mamlakatlar 2018-2022-yillar davomida chet elga chiqqanlar umumiy oqimining 90 foizdan ortig'ini tashkil etgan. O'zbekistondan kelayotgan migrantlar oqimi bo'yicha aniq ma'lumotlar Qozog'iston Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan bo'lib, unda 2022-yilda O'zbekistondan Qozog'istonga 6544 kishi kelgan (QSB, 2023a). ROSSTAT 2022-yilda Rossiya Federatsiyasiga kelgan o'zbekistonliklarning 54 035 nafarini hisoblagan bo'lsa, 2021-yilda bu raqam 56 808 nafarni tashkil qilgan (ROSSTAT, 2023a; 2022).

O'zbekistonda bo'lgani kabi Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasida ham immigratsiya oqimi kelish va jo'nab ketishning statistik hisobini qayd qiluvchi hujjatlar asosida shakllantiriladi. Ushbu hujjatlar hududiy ichki ishlar organlari tomonidan taqdim etiladi va aholini yashash joyi bo'yicha hisobga olish va hisobdan chiqarish vaqtida tuziladi. Umumiy metodologiyaga qaramay, har bir mamlakatda migrantlarni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar, turli omillarni hisobga olgan holda, milliy rasmiy emigratsiya statistikasi va uchinchi mamlakatlar tomonidan e'lon qilinganlar o'rtasidagi tafovutning asosiy sabablari hisoblanadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida yashash joyi bo'yicha qayta ro'yxatdan o'tish, chiqish va qayta kirish to'g'risida yetarlicha ma'lumot bermaslik, uzoq muddat davomida jamlangan migrantlar sonining kam hisoblanishi kabi omillar xalqaro migratsiya oqimlarini statistik qayd etish sifatiga ta'sir qilmoqda. (Chudinovskix, Stepanova, 2021).

#### 4-RASM: O'ZBEKISTONLIK EMIGRANTLAR OQIMI, 2018-2022-YILLAR (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: O'zSTAT, 2023b

Shunisi e'tiborga loyiqki, har bir emigrant o'zining ketishi haqida rasmiy organlarga xabar bermaydi va emigrantlarni ketishi haqida ma'lum qilishga undaydigan yoki majburlaydigan mexanizm yo'q. Mehnat migrantlari uchun faqat oz sonli migrantlar chet elga chiqishdan oldin o'z mamlakatida mehnat shartnomalarini imzolaydi va ro'yxatdan o'tkazadi (UNECE, 2011). Bu omillarning barchasi O'zbekistonning rasmiy emigratsiya statistikasi va uchinchi davlatlar tomonidan e'lon qilingan immigratsiya statistikasi o'rtasidagi tafovutga sabab bo'ladi.

Boshqa davlatlarga emigrantlar oqimiga kelsak, 2022-yilda 4979 nafar O'zbekiston fuqarosi AQShda qonuniy doimiy yashash maqomiga ega bo'ldi (UHDSH, 2023), 881 nafar O'zbekiston fuqarosi Yevropa Ittifoqida uzoq muddatli yashash uchun ruxsatnoma oldi (YEVROSTAT, 2023a).

O'zbekistondan emigratsiya bo'yicha to'plangan manbalarni baholash turli milliy va xalqaro manfaatdorlar tomonidan taqdim etilgan raqamlar va oqimlar haqidagi ma'lumotlarda bo'shliqlar va tafovutlar mavjudligini aniqlashga imkon berdi. Xususan, O'ZSTAT va ROSSTAT tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlangan. Buning sabablari ma'lumotlarni to'plash va hisoblash usullarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek kelib chiqish mamlakatida ham, borish mamlakatida ham migratsiya oqimlarini hisoblashda mavjud kamchiliklar bo'lishi mumkin.

Asosiy bo'shliqlar alohida-yillarda emigrantlar soni, jinsi va borish mamlakati bo'yicha kuzatilgan. Emigrantlarning ta'lim darajasi haqidagi ba'zi ma'lumotlar faqat 2022-yil uchun topilgan. Emigrantlarning ta'lim darajasi haqidagi ma'lumotlar faqat 2022-yil uchun topilgan. 2023-yil uchun ma'lumotlar 2023-yilning birinchi to'qqiz oyi uchun emigrantlar va ularning boradigan mamlakatlar soni va oqimi bilan cheklangan.

#### 4-JADVAL: O'ZBEKISTONDAN EMIGRATSIYA BO'YICHA MAVJUD MA'LUMOTLARDAGI BO'SHLIQLAR, 2023-YIL

O'zbekistondan emigratsiya	Eng so'ng-gi mavjud ma'lumotlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
# emigrantlar							
# jins bo'yicha emigrantlar							
#emigrantlar mezbon mamlakatdagi joylashuvi bo'yicha							
#emigrantlar o'z mamlakatida kelib chiqish joyi bo'yicha							
# emigrantlar yoshi bo'yicha							
# emigrantlar bandlik maqomi bo'yicha							
# emigrantlar ta'lim darajasi bo'yicha							
#emigrantlar oqimi							
# borish mamlakati bo'yicha emigrantlar oqimi							

### 3.3 QAYTISH MIGRATSIYASI

O'zbekistonga qaytish migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar milliy davlat organlari tomonidan to'planadi, ular xalqaro ma'lumotlar bazalarida (MMP, YEVROSTAT), xalqaro tashkilotlar hisobotlarida (IOM, UNDP), ilmiy manbalarda, shuningdek, onlayn ommaviy axborot vositalaridagi maqolalarda e'lon qilinadi. Ushbu bo'lim uchun jami 15 ta ma'lumot manbalari aniqlandi va tahlil qilindi. Ular asosan o'zbek, rus va ingliz tillarida mavjud bo'lgan ma'muriy va statistik ma'lumotlardan iborat. Mahalliy ma'lumotlar manbalari asosan o'zbek tilida, OAV xabarlari ham o'zbek, ham rus tillarida, xalqaro manbalar esa ingliz tilida taqdim etilgan.

O'zbekistonning milliy manbalari orasida vatanga qaytgan mehnat migrantlari soni haqidagi ma'lumotlar TMMAning 2022- va 2023-yillarga mo'ljallangan hisobotlarida keltirilgan. Har chorakda chop etiladigan ma'lumotlar jinsi, vatanidagi qaytish joyi va ular qaytib kelayotgan mamlakat va qaytishdan oldingi ish turi bo'yicha ajratilgan. Ma'lumotlar har chorakda o'zbek tilida TMMMA veb-saytida e'lon qilinadi (TMMMA, 2022; 2023). 2018-2021-yillar davomida qaytgan mehnat migrantlari to'g'risidagi ma'lumotlar TMMAdan rasmiy tarzda so'ralgan. Biroq, ushbu hisobot chiqishiga qadar ma'lumotlar taqdim etilmagan.


Migratsiya ma'lumotlari portalida 2013-2022-yillarda IOM ixtiyoriy ravishda O'zbekistonga qaytishga yordam bergan migrantlar soni haqidagi ma'lumotlar mavjud. Ushbu ro'yxatga vatanga qaytishni xohlagan yoki qaytishi zarur bo'lgan, lekin bunga imkoni yo'q migrantlar kiradi (MMP, 2023). YEVROSTAT Yevropa Ittifoqi davlatlaridan chiqish buyrug'i bilan qaytgan O'zbekiston fuqarolari haqida ma'lumot taqdim etadi. Ma'lumotlar har bir Yevropa Ittifoqi mamlakati uchun jinsi, yosh guruhi va qaytish turi bo'yicha ajratilgan. Ma'lumotlar har chorakda yangilanadi va 2021–2023-yillar uchun ingliz tilida mavjud (YEVROSTAT, 2023c).

IOM hisobotidan Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istondagi mehnat migrantlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari asosida o'zbekistonlik mehnat migrantlarining qaytishdan oldin bajargan ish turlari haqida ma'lumot olish uchun foydalanish mumkin (Ryazantsev va boshq., 2021). UNDP hisobotida 2020-yilda vatanga qaytgan mehnat migrantlari soni haqidagi ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, O'zbekiston fuqarolarining xorijga chiqib ketish sabablari, migrantlar qaytgan asosiy davlatlar, shuningdek, qaytish migratsiyasi sabablari tahlil qilingan (BMT Taraqqiyot Dasturi, 2022).

Bir qator manbalarda Rossiya Federatsiyasidan qaytish migratsiyasi muammolari bo'yicha statistik tadqiqotlar natijalari, shuningdek, 2022-yil holatiga ko'ra vatanga qaytgan migrantlar to'g'risidagi miqdoriy ma'lumotlar tasvirlangan (Azamova, Tursunaliyeva, 2022; Ismanova, 2023). Boshqa nashrlarda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalalari va mehnat migrantlarining qaytib kelganidan keyin reintegratsiyalashuvi muammolari yoritilgan (Abdullayeva, 2022). Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston Respublikasi Senati, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi (IHMM), TMMMA va xorijiy NNTlar kabi tashkilotlar materiallari va bayonotlari asosida bir qator nashrlar mavjud. Maqolada 2020- va 2021-yillarda qaytgan mehnat migrantlari, shuningdek, 2022-yilda Ukrainadan qaytgan O'zbekiston fuqarolari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan (Kun.uz, 2022; Gazeta.uz, 2022; O'zbekiston Senati, 2022; NCHR, 2022). Nashrlar o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi.

2022-yilda O'zbekistonga 608 140 ming mehnat migrantlari qaytgan. Ularning 79,7 foizini erkaklar, 20,3 foizini ayollar tashkil etadi. Ularning 60 foizdan ortig'i Rossiya Federatsiyasidan, qariyb 20 foizi Qozog'istondan, besh foizi Turkiya Respublikasidan, qolgan 13,5 foizi boshqa davlatlardan qaytgan. Qaytgan migrantlar shug'ullangan ish faoliyati asosiy yo'nalishlari qurilish (46,8 foiz), qishloq xo'jaligi (10,2 foiz), ishlab chiqarish (7,9 foiz), savdo va xizmat ko'rsatish (6,6 foiz)dir. Farg'ona viloyati (13,4%), Andijon viloyati (12,9%) va Samarqand viloyati (12,6%) eng ko'p qaytgan migratsiya oqimiga ega bo'lgan hududlar bo'lgan (TMMMA, 2022).

## 5-RASM: O'ZBEKISTONGA QAYTGAN MIGRANTLAR OQIMI, 2020-2022-YILLAR (MUTLAQ RAQAMLAR)




Manba: Kun.uz (2020), Gazeta.uz (2022), TMMA (2022)

Eslatma. Ushbu grafik turli manbalardan olingan ma'lumotlar asosida tuzilgan: 2020-yilda qaytgan migrantlar soni Kun.uz (2020-yil), 2021-yilda qaytgan migrantlar soni Gazeta.uz axborot agentliklari saytida e'lon qilingan. 2022-yildagi migrantlar TMMA (2022) manbasida topilgan.

1979-yildan buyon IOM butun dunyo bo'ylab Ko'mak asosida ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya (AVRR) dasturlarini amalga oshirib, migrantlarning o'z mamlakatlariga qaytishiga yordam beradi. 2018-2022-yillar oralig'ida IOM mezbon yoki tranzit mamlakatlarda qolishni istamagan yoki qololmagan va O'zbekistonga qaytishga qaror qilgan 1146 nafar o'zbekistonlik migrantga yordam ko'rsatdi (MMP, 2023). O'zbekiston 2021-yilda Janubi-sharqiy Yevropa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo (SEECA) mintaqasida mezbonlik qiladigan qaytgan migrantlar bo'yicha yetakchi beshlikka kirdi (IOM, 2023b).

## 6-RASM: IOM TOMONIDAN O'ZBEKISTONGA IXTIYORIY RAVISHDA QAYTISHGA YORDAM BERILGAN MIGRANTLAR SONI, 2018-2022-YILLAR (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: IOM, 2023d

O'zbekiston hukumati ham insonparvarlik amaliyoti doirasida o'z fuqarolarini vataniga qaytarmoqda. Xususan, 2019-yildan 2021-yilgacha O'zbekiston Suriya, Iroq va Afg'onistondan 120 dan ortiq ayol va 380 ga yaqin bolani qaytardi (IHMM, 2022). 2022-yil bahorida O'zbekiston olti mingdan ortiq o'zbekistonlik fuqarolarini Ukrainadan evakuatsiya qildi (Kun.uz, 2022).

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, qaytib kelganlar to'g'risidagi ma'lumotlar, birinchi navbatda, mehnat migratsiyasi bo'yicha mavjud va migrantlar IOM yordami bilan ixtiyoriy ravishda vatanga qaytishgan. Shuningdek, O'ZSTAT ma'lumotlar bazasini tekshirishda qaytish migratsiyasi bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etuvchi manbalar aniqlanmagan. Qaytgan mehnat migratsiyasiga kelsak, 2018-2021-yillarda qaytish migratsiyasi oqimi to'g'risida rasmiy TMMA ma'lumotlari yo'q. 2020-2021-yillar uchun ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari orqali to'plangan. 2018-2020-yillar uchun mehnat migratsiyasidan qaytganlar, jinsi va yoshi bo'yicha ajratilgan holda yoki 2018-2019-yillarda qaytgan mamlakat haqida ma'lumotlar topilmadi. Vatandagi qaytish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar 2020-, 2022- va 2023-yillar uchun mavjud edi. Qaytishgacha bo'lgan ish turlari to'g'risidagi ma'lumotlar faqat 2020-yildan 2023-yilgacha to'plangan. Qaytganlarning ta'lim darajasi haqida ma'lumot beruvchi manbalar aniqlanmagan. Ixtiyoriy ravishda qaytgan migrantlar haqida ma'lumotlar 2018-2022-yillar davomida qaytganlar soni bilan cheklangan.

Qaytgan migrantlar shug'ullangan ish faoliyati turlari qurilish (46,8 foiz), qishloq xo'jaligi (10,2 foiz), ishlab chiqarish (7,9 foiz), savdo va xizmat ko'rsatish (6,6 foiz) sohalari bor. Farg'ona viloyati (13,4 foiz), Andijon viloyati (12,9 foiz) va Samarqand viloyati (12,6 foiz) qaytgan migratsiya oqimi eng ko'p bo'lgan hududlar bo'lgan (TMMA, 2022).

## 5-JADVAL: O'ZBEKISTONGA QAYTISH MIGRATSIYASI BO'YICHA MAVJUD MA'LUMOTLARDAGI BO'SHLIQLAR, 2023-YIL

Qaytish migratsiyasi	Eng so'nggi mavjud ma'lumotlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
# qaytib kelganlar (oqimi)							
# qaytib kelganlar (oqimi) jinsi bo'yicha							
# qaytib kelganlar (oqimi) qaytish mamlakati bo'yicha							
# qaytib kelganlar (oqimi) o'z mamlakatiga qaytish joyi bo'yicha							
#qaytib kelganlar (oqimi) qaytishdan oldingi ish turi bo'yicha							
# qaytib kelganlar (oqimi) ta'lim darajasi bo'yicha							
#qaytib kelganlar yoshi bo'yicha							



## 3.4 NOQONUNIY MIGRATSIYA

O'zbekistonda noqonuniy migratsiya bo'yicha jamlangan ma'lumotlarning asosiy milliy manbasi O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi (IIV) hisoblanadi. Xalqaro manbalarga onlayn ma'lumotlar bazalari (YEVROSTAT), xalqaro tashkilotlar va xorijiy NNTlar (UNODC, IOM, USDOS, USAID, Praga jarayoni) hisobotlari va akademik resurslar kiradi. Aksariyat manbalar IIV, TMMA va mahalliy NNT ma'lumotlariga havola qilinadi va odam savdosi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ichki ma'lumot manbalarida migrantlarning noqonuniy migratsiyasi yoki kontrabandasi bilan bog'liq atamalardan foydalanish holatlari aniqlanmagan. Tarqalgan ma'muriy ma'lumotlar mahalliy internet-ommaviy axborot vositalarida odam savdosining ayrim holatlari haqida hikoya qiluvchi nashrlarda topilgan (Gazeta.uz, 2023a). Aniqlangan mahalliy manbalar o'zbek va rus tillarida, xalqaro ma'lumotlar to'plami esa ingliz tillarida bo'lgan. Jami 24 ta manba to'plangan va ko'rib chiqilgan.

IOMning rasmiy xatiga ko'ra, IIV so'nggi olti yil davomida, ya'ni 2018-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda odam savdosi bilan bog'liq vaziyat to'g'risida keng qamrovli hisobot taqdim etdi. Hisobotda odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar soni, qo'lga olingan odam savdosi jinoyatchilari soni va ularning qurbonlari jinsi bo'yicha keng ko'lamli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, IIV odam savdosining asosiy turlari va shu davrda odam savdosi qurbonlari boradigan asosiy mamlakatlarni ma'lum qilgan. Hisobotda odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilgan tashabbuslar yoritilgan, O'zbekiston fuqarolarini chet elga olib chiqishga to'sqinlik qiluvchi holatlar soni haqida ma'lumot berilgan, shuningdek, odam savdosiga qarshi kurashishga qaratilgan ommaviy tadbirlar batafsil bayon etilgan (IIV, 2023).

Biroq, milliy agentliklar hisobotlarida noqonuniy migratsiya haqidagi ma'lumotlar mavjud emas hamda mavjud ma'lumotlar ham parcha holatidagina bor. O'zbekistondagi noqonuniy migratsiya holati haqida ma'lumotni AQSh Davlat Departamentining (USDOS) Odam savdosi hisobotlaridan olish mumkin. Ushbu hisobot har yili nashr etiladi va hozirda 2018-2022-yillar uchun ma'lumotlar mavjud. Ularda IIV dan olingan odam savdosi qurbonlari soni to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Ushbu hisobot, shuningdek, odam savdosi qurbonlari turi, asosiy yo'nalishlari, mintaqalari va odam savdosi qurbonlari aniqlangan mamlakatlar haqida ma'lumot beradi (USDOS, 2023). 2020-yil hisobotida 2018-2019-yillar davomida O'zbekiston diplomatik vakolatxonalari, Qozog'iston va Qirg'izistondagi NNTlardan yordam olgan odam savdosi qurbonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan (USDOS, 2020).

Odam savdosining aniqlangan qurbonlari soni haqidagi statistik ma'lumotlar BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha Boshqarmasi (UNODC) saytida keltirilgan. Ma'lumotlar UNODC tomonidan milliy hokimiyat organlaridan Jahon odam savdosi hisoboti uchun yillik so'rovnoma orqali to'planadi. Ma'lumotlar bazasi odam savdosi qurbonlari soni, jinsi, yoshi va ekspluatatsiya shakllari bo'yicha guruhlariga ajratilgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi. 2007-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davr uchun raqamlar mavjud (UNODC, 2023). Noqonuniy migratsiya va migrantlar kontrabandasining asosiy yo'nalishlari haqidagi ma'lumotlar UNODC ning 2018-yilgi hisobotida tasvirlangan (UNODC, 2018). UNODC ning 2019-yildagi yana bir hisoboti 2014-yildan 2017-yilgacha bo'lgan davrda jinsi, yoshi va ekspluatatsiya shakllari bo'yicha odam savdosi qurbonlari soniga oydinlik kiritadi (UNODC, 2019). IOM hisobotlari 2021-2022-yillarga mo'ljallangan odam savdosi qurbonlari haqidagi ma'lumotlarni miqdoriy tahlil qilish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumotlar turli manbalardan to'planadi, xususan, IOM tashabbusi bo'lgan Odam savdosiga qarshi hamkorlik dasturi dunyo bo'ylab odam savdosiga qarshi kurash tashkilotlaridan izchil ma'lumotlarni to'playdi va nashr etadi (IOM, 2023a; 2023b).

YEVROSTAT ma'lumotlar bazasi ma'lum bir davlatdan, jumladan, O'zbekistondan Yevropa Ittifoqiga noqonuniy migratsiyani baholash imkonini beruvchi ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi. Masalan, ma'lumotlar bazasidan Yevropa Ittifoqi hududida noqonuniy bo'lgan, mamlakatdan chiqib ketish to'g'risida buyruq berilgan yoki chiqib ketish buyrug'i bilan qaytgan O'zbekiston fuqarolari sonini olish mumkin. Bu raqamlar Yevropa Ittifoqining ma'lum bir mamlakati bo'yicha saralanishi mumkin. Ma'lumotlar har chorakda va har yili yangilanadi, ma'lumotlar ingliz tilida taqdim etiladi. Har choraklik ma'lumotlar to'plami 2021-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrni, yillik ma'lumotlar to'plami esa 2013-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi (YEVROSTAT, 2023c, 2023d, 2023e).

Odam savdosidan jabrlanganlar soni va ularning ijtimoiy-demografik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar turli tadqiqot ishlarida hujjatlashtirilgan. Xususan, Nordic Journal of Criminology (2023) da chop etilgan mustqil tadqiqotchi Eraliyevning (2023) maqolasida O'zbekiston fuqarolarining Shvetsiyaga noqonuniy migratsiyasining asosiy yo'llari va usullari batafsil tavsiflangan. Molodikova (2020) 2010-yildan buyon MDH davlatlari, Ukraina va Gruziya orqali noqonuniy tranzit harakatlanish yo'nalishlari va 2009-2017-yillarda Yevropa Ittifoqida noqonuniy bo'lgan Markaziy Osiyodan kelgan migrantlar soni, shuningdek, odam savdosi bilan bog'liq vaziyatni tahlil qiladi. 2017-yil 1-mart holatiga ko'ra Rossiya Federatsiyasida "xavf guruhi"ga kiritilgan O'zbekiston


fuqarolari soni Chudinovskixning (2020) Rossiya Federatsiyasidagi noqonuniy migratsiya ko'lamini baholashga bag'ishlangan maqolasida keltirilgan. Noqonuniy migrantlarning ijtimoiy-demografik holati va noqonuniy migratsiyada qo'llaniladigan asosiy usullar haqidagi ba'zi ma'lumotlar O'rinboyev (2018) nashrida keltirilgan.

O'zbekistonning "Hook.report" internet nashri 2020- va 2022-yillarda odam savdosi bilan bog'liq vaziyatni tahlil qiluvchi bir qancha maqolalarni chop etdi. Ushbu maqolalarda O'zbekiston fuqarolari, mahalliy NNTlardan yordam olgan odam savdosi qurbonlari soni, odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar tomonidan odamlarni yollash usullari, O'zbekistondan odam savdosi qurbonlari ekspluatatsiya qilingan mamlakatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan (Fayzieva, 2020; 2022).

IIV ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan olti-yil davomida (2018-2023-yillar) odam savdosi bilan bog'liq 775 ta holat aniqlangan. Ushbu holatlarning 491 tasi ayollar va qizlarni fohishalikda ishlatish, 242 tasi voyaga yetmaganlar savdosi va 42 tasi majburiy mehnat bilan bog'liq holatlardir. Odam savdosidan jami 1160 nafar jabrlanuvchi qayd etilgan. Huquq-tartibot idoralari tomonidan odam savdosi bilan shug'ullangan 987 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilib, ularning jinoiy harakatlariga to'liq barham berilgan (IIV, 2023-yil).

Odam savdosining asosiy yo'nalishlari Turkiya Respublikasi (164 ta holat), Qozog'iston (137 ta holat), Rossiya Federatsiyasi (124 ta holat), Birlashgan Arab Amirliklari (102 ta holat), Hindiston (35 ta holat) va boshqa davlatlardir (74 ta holat) (IIV, 2023). AQSh Davlat Departamentining (USDOS) Odam savdosi hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston fuqarolari Yaqin Sharq, Yevropa, jumladan, Estoniya, Gruziya, Latviya, Moldova, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya Respublikasi, Markaziy, Janubiy va Sharqiy Osiyo, shu jumladan Qozog'iston, Shri-Lanka, Hindiston va Tailandda jinsiy ekspluatatsiya va majburiy mehnat uchun ekspluatatsiya qilinmoqda. Ular Moldova, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya Respublikasi, Markaziy, Janubiy va Sharqiy Osiyoda qurilish, transport, neft va gaz, qishloq xo'jaligi, chakana savdo va oziq-ovqat sanoatida majburiy mehnatga jalb qilingan (USDOS, 2023), shu jumladan mos ravishda Qozog'iston, Shri-Lanka, Hindiston va Tailandda ham shu kabi holatlar qayd etilgan. Ular qurilish, transport, neft va gaz, qishloq xo'jaligi, chakana savdo va oziq-ovqat sanoatida majburiy mehnatga duchor bo'lishadi (USDOS, 2023).

## 7-RASM: O'ZBEKISTONDA 2018-YIL NOYABRDAN 2023-YILGACHA ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLAR SONI (MUTLAQ RAQAMLAR)




Manba: IIV, 2023

Odamlar kontrabandasi bo'yicha O'zbekiston boshqa Markaziy Osiyo davlatlari qatori Janubiy, Janubi-g'arbiy va Sharqiy Osiyodan Yevropaga noqonuniy migratsiya va migrantlarni olib o'tish uchun tranzit zonaga aylangan. Markaziy Osiyo davlatlari orqali o'tganidan so'ng ular Ukraina va Belarus Respublikasini kesib o'tib, Polsha, Slovakiya yoki Vengriyaga yetib kelishadi (UNODC, 2018).

2018-2022-yillarda Yevropa Ittifoqining 27 davlatida 5 710 nafar O'zbekiston fuqarosi noqonuniy bo'lganligi aniqlangan (YEVROSTAT, 2023d). Deyarli 3 655 nafar O'zbekiston fuqarosi xuddi shu muddatga mamlakatni tark etish to'g'risidagi buyruqdan so'ng qaytarilgan (YEVROSTAT, 2023f). Turkiya Respublikasi hukumati 2023-yilda Turkiya Respublikasida O'zbekistondan kelgan 7 941 nafar noqonuniy migrant aniqlangani haqida xabar bergan (Turkiya Respublikasi Migratsiya boshqarmasi raisligi, 2023).

## 8-RASM: YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARIDA NOQONUNIY BO'LGAN O'ZBEKISTON FUQAROLARI SONI, 2018-2022-YILLAR (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: YEVROSTAT, 2023d; 2023e

Eslatma. 2023-yilga oid ma'lumotlar hali yakuniy raqamlar emasligi sababli chiqarib tashlandi (jami yig'indiga

2023-yilda 2021-yil oktabrdan 2023-yil oktabrgacha AQSH janubiy chegarasini noqonuniy kesib o'tishga uringan 13 624 nafar O'zbekiston fuqarosi AQSH chegara xizmati xodimlari tomonidan qo'lga olingani xabar qilingan. Ular AQSH bojxona va chegara qo'riqlash xizmati tomonidan "maxsus manfaatga ega chet elliklar", AQSH hukumati tomonidan terrorizmni targ'ib qilish yoki himoya qilish qoidalari bor yoki AQSH milliy xavfsizligiga tahdid solishi mumkin deb hisoblagan mamlakatlardan kelgan odamlar deb tasniflangan (Shou, Melyugin, Jenkins, 2023).

Noqonuniy migratsiya bo'yicha ma'lumotlarni o'rganish natijasida O'zbekiston milliy agentliklarining ochiq manbalarida noqonuniy migratsiya, kontrabanda va odam savdosining turli ko'rsatkichlari bo'yicha yetarlicha statistik ma'lumotlar yo'qligi aniqlandi. Ushbu mavzular bo'yicha ommaga ochiq ma'lumotlar faqat mahalliy ommaviy axborot vositalarida alohida holatlar va hodisalarni yoritish bilan cheklangan. Ilmiy to'plamlar va jurnallardagi mahalliy nashrlar odam savdosi va noqonuniy migratsiya masalalari bo'yicha milliy qonunchilikni tahlil qilish bilan cheklanadi. Xorijiy axborot manbalari xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning statistika idoralari tomonidan tarqatilgan ma'lumotlarga tayanadi. O'z navbatida, UNDOC, USDOS, IOM kabi tashkilotlar IIV, TMMA va mahalliy NNT kabi mahalliy manfaatdor tomonlardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi.

Yig'ilgan axborot manbalari tahlili 2019-, 2020- va 2022-yillarda noqonuniy migratsiyaning asosiy yo'nalishlarida bo'shliqlar mavjudligini qayd etdi. 2018-2022-yillarda noqonuniy migratsiyaning asosiy usullari haqida ma'lumot topilmadi. Kontrabandaning asosiy yo'llari haqidagi ma'lumotlar faqat 2023-yil va 2018-yilgacha bo'lgan oldingi davr uchun mavjud edi (Molodikova, 2020; Eraliev, 2023). Kontrabandachilardan foydalangan migrantlar soni va 2018-yildan 2023-yilgacha hujjatsiz/kontrabanda shaxslarning ijtimoiy-demografik profilida qo'shimcha bo'shliqlar mavjud. Bundan tashqari, 2018-, 2020-2021-yillarda O'zbekistondan boshqa davlatlarga noqonuniy migrantlar soni bo'yicha ma'lumotlar topilmadi.

## 6-JADVAL: O‘ZBEKISTONDA NOQONUNYIY MIGRATSIYA BO‘YICHA MAVJUD MA‘LUMOTLARDAGI BO‘SHLIQLAR, 2023-YIL

Noqonuniy migratsiya	Eng so‘nggi mavjud ma‘lumotlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Noqonuniy migratsiyaning asosiy yo‘llari							
Noqonuniy migratsiyada qo‘llaniladigan asosiy usullar							
Kontrabandaning asosiy yo‘llari							
Kontrabandachilardan foydalanilgan migrantlar soni							
Noqonuniy migrantlarning ijtimoiy-demografik profili (yoshi, jinsi)							
Odam savdosi uchun foydalaniladigan asosiy yo‘llar							
Odam savdosidan jabrlanganlar soni							
Odam savdosidan jabrlanganlarning ijtimoiy-demografik profili (yoshi, jinsi)							
Noqonuniy migrantlar O‘zbekistondan ketishadimi, O‘zbekistonga kelishadimi yoki ikkalasimi?							

## 4. MAJBURIY MIGRATSIYA VA KO'CHISH

### 4.1 O'ZBEKISTONDAGI QOCHQINLAR

O'zbekistonda joylashgan qochqinlar bo'yicha joriy ma'lumotlar bazasi BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligi boshqarmasi (UNHCR) ma'lumotlar bazalari va jamlanma hisobotlari, UNDESA migrantlar soni bo'yicha ma'lumotlar to'plamlari, IOM, Jahon banki guruhi (JBG) va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) hisobotlariga asoslanadi. Manbalar O'zbekistonga kelib tushgan qochqinlar soni va oqimi to'g'risidagi ma'muriy va statistik ma'lumotlardan foydalanadi va taqdim etadi. Jami 13 ta manba to'plangan va o'rganilgan. Barcha manbalar ingliz tilida, ba'zi materiallar rus tilida ham mavjud.

O'zbekistonga qabul qilingan qochqinlar haqidagi ma'lumotlar, Refugee Data Finder (RDF), UNHCR Qochqinlar statistikasi ma'lumotlar bazasida mavjud. RDF 1993-yildan 2022-yilgacha O'zbekistonda UNHCR mandati ostidagi qochqinlar va boshpana izlovchilarning yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. 2023-yil uchun ma'lumotlar-yilning o'rtalariga qadar mavjud. Ma'lumotlar kelib chiqish mamlakati bo'yicha ajratilishi mumkin. Mavjud ma'lumotlarni jins, yosh guruhi va joylashuvi bo'yicha ajratish mumkin bo'lsa-da, 2018–2023-yillardagi raqamlar nol qiymatlarni ko'rsatadi yoki umumiy ko'rsatkichlarga mos kelmaydi (UNHCR, 2023a).


2022-yil uchun O'zbekistondagi qochqinlar va boshpana izlovchilar soni IOM Migratsiya ma'lumotlari hisobotida (IOM, 2023b) ko'rsatilgan. UNHCR bazasi ma'lumotlariga o'xshash ma'lumotlar to'plamini BMT ma'lumotlar portalidan olish mumkin. Mavjud filtrlar 1999–2021-yillar (UNDATA, 2022) uchun ma'lumotlarni kelib chiqish mamlakati yoki hudud bo'yicha saralashga yordam beradi. UNDESA Xalqaro migrantlar fondi O'zbekistonda joylashgan qochqinlar va boshpana izlovchilar sonini hisoblab chiquvchi yana bir ma'lumotlar to'plamidir. Ma'lumotlar xalqaro migrantlar sonining foizi va 1995-yildan 2019-yilgacha bo'lgan besh yillik davrlar uchun qochqinlar sonining yillik o'zgarish darajasi bo'yicha taqdim etilgan (UNDESA, 2019c). 2018-yilgacha bo'lgan qochqinlar sonini UNHCR ning O'zbekiston bo'yicha yig'ma hisobotlarida (UNHCR, 2012, 2017) topish mumkin. UNHCR ma'lumotlariga asoslanib, Jahon banki 2010-yil uchun Yevropa va Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda qochqinlar va boshpana izlovchilar soni va oqimining qiyosiy jadvalini taqdim etgan (De Berri, Petrini, 2011).

O'zbekistondagi qochqinlar soni va oqimi MDH mamlakatlaridagi qochqinlar va ichki ko'chirilganlar, shuningdek, Tojikiston Respublikasidagi fuqarolar urushi haqidagi tadqiqot ishlarida (Ollauson, 1998; Nazarshoyeva, 2019) ham yoritilgan.

O'zbekistonga qochqinlar oqimi to'g'risidagi eng so'nggi ma'lumotlarni 2022-yilgi AQSH BDHRL Country Reports va 2021-yilgi UNHCR Uzbekistan Country Profile veb-sahifasida (BDHRL, 2022; UNHCR, 2021) topish mumkin. Qochqinlar oqimi haqidagi oldingi ma'lumotlar JSST hisobotlarida qayd etilgan. JSSTning 2010-yilda Qirg'izistondagi tartibsizliklar haqidagi hisobotida uylariga qaytgan qirg'iz qochqinlari va O'zbekistondagi lagerlarda yashayotganlarning umumiy soni haqida batafsil ma'lumot berilgan (JSST, 2010). 2000-yildan 2005-yilgacha bo'lgan boshpana so'rovlari va 2001-yildan 2006-yilgacha bo'lgan qarorlar haqidagi ma'lumotlar BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligida mavjud.

2023-yil o'rtalariga kelib O'zbekiston 13 025 nafargacha qochqinni qabul qildi (UNHCR, 2023a). Ularning barchasi Afg'oniston fuqarolari edi. 2021-yilda Afg'onistonda Tolibon hokimiyat tepasiga kelganidan beri 13 020 nafar afg'on fuqarosi O'zbekistonga qisqa muddatli vizalar bilan kelgan (UNHCR, 2021). Afg'onistondagi siyosiy vaziyat tufayli ular qaytib keta olmadilar va taxminan 2000 kishi himoya va yordamga muhtoj edi (BDHRL, 2022). Qurolli to'qnashuvlar ko'rinishida davom etayotgan harbiy-siyosiy beqarorlik Afg'oniston xalqini Markaziy Osiyo davlatlaridan boshpana izlashga majbur qildi. 1990-yillarda O'zbekiston sakkiz ming afg'on qochqinini qabul qilgan edi (Ollauson, 1998).

## 9-RASM: O'ZBEKISTONDA JOYLASHGAN QOCHQINLAR VA BOSHPIANA IZLOVCHILAR SONI, 1993-2022-YILLAR (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: UNHCR, 2023a

- Afg'onistonlik qochqinlar
- Afg'onistonlik boshpana izlovchilarn
- Tojikistonlik qochqinlar va boshpana izlovchilar

Tojikistondagi fuqarolar mojarosi va qo'shni Afg'onistondagi urush oqibatlarini XX asrning oxirgi o'n-yilligi va XXI asr boshlarida Tojikistondan o'n minglab etnik o'zbek va tojiklarni O'zbekistonga ko'chib o'tishga majbur qildi. 2006-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda taxminan 39 200 nafar tojik qochqinlari bo'lgan (Nazarshoyeva, 2019). 2010-yil iyun oyida Qirg'iziston janubida boshlangan shiddatli etnik to'qnashuvlar natijasida 75 mingdan ortiq qochqin O'zbekistonga qochib o'tgan. 2010-yil iyul oyi o'rtalarida ko'pchilik qochqinlar vaqtinchalik boshpanalarni tark etib, Qirg'izistonga qaytib kelishgan (De Berri, Petrini, 2011).

2000-yildan 2005-yilgacha UNHCR ma'lumotiga ko'ra O'zbekistondan boshpana so'rash bo'yicha 5 651 ta ariza ko'rib chiqilgan, ularning deyarli 97 foizi Afg'onistondagi qochqinlar bo'lgan. Arizalarning 34 tasi Ozarbayjondan, 23 tasi Tojikistondan, qolgan 121 tasi esa 18 ta davlatdan kelgan qochqinlar, jumladan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan taqdim etilgan. Mazkur murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha 5 918 ta qaror qabul qilingan bo'lib, ulardan 3 143 tasi e'tirof etilgan (ma'qullangan), 746 tasi rad etilgan (qaror salbiy, ammo bekor qilinmagan) va 2 029 tasi yopilgan (aniq sabablarga ko'ra tugatilgan). Tan olingan qarorlardan 3 118 tasi Afg'onistondan kelgan qochqinlar foydasiga, qolganlari esa Ozarbayjon, Iroq va Turkmanistondan kelgan qochqinlar bilan bog'liq bo'lgan qarorlardir (UNHCR, 2023a).

O'zbekistonda qabul qilingan qochqinlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili ta'lim darajasi bo'yicha ajratilgan holda qochqinlar va boshpana izlovchilarning soni va oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarda bo'shliqlar mavjudligini qayd etdi. Mavjud manbalardan (RDF) yosh guruhlari va jinslar bo'yicha qochqinlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar ularning to'liq emasligi, yo'qligi yoki umumiy ko'rsatkichlarga mos kelmasligi sababli ularni qayta ishlanishning imkoni yo'q. 2023-yil uchun faqat qochqinlarning umumiy soni va kelib chiqish mamlakatlari bo'yicha qochqinlar soni mavjud. Qochqinlar oqimiga kelsak, 2018-2020- va 2022-2023-yillar uchun ma'lumotlar topilmadi. Bundan tashqari, jins bo'yicha qochqinlar oqimi haqida ma'lumot aniqlanmadi. Qochqinlar haqidagi barcha ma'lumotlar xalqaro manbalardan to'plangan. Eslatib o'tish lozimki, O'zbekiston 1951-yilda qabul qilingan BMTning Qochqinlar bo'yicha Konvensiyasiga a'zo emas va mamlakatga kelganlarning qochqinlik maqomini tan olmaydi. Bu holat so'nggi-yillarda aniqlangan ma'lumotlar bo'shliqlarining mavjudligini va ma'lumot yetishmasligini tushuntirishga asos bo'ladi.

## 7-JADVAL: O‘ZBEKISTONDA BO‘LIB TURGAN QOCHQINLAR TO‘G‘RISIDA MAVJUD MA‘LUMOTLARDAGI BO‘SHLIQLAR, 2023-YIL

O‘zbekistondagi qochqinlar	Eng so‘nggi mavjud ma‘lumotlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
# Qochqinlar							
# Qochqinlar jins bo‘yicha							
# Qochqinlar yosh bo‘yicha							
# Qochqinlar kelib chiqish davlati bo‘yicha							
# Qochqinlar ta‘lim darajasi bo‘yicha							
# Qochqinlar oqimi							
# Qochqinlar oqimi jins bo‘yicha							
# Qochqinlar oqimi kelib chiqish davlati bo‘yicha							

### 4.2 O‘ZBEKISTONLIK QOCHQINLAR

O‘zbekistonlik qochqinlar bo‘yicha joriy ma‘lumotlar bazasi O‘zbekistondagi qochqinlar uchun foydalaniladigan manbalar to‘plamiga asoslanadi. Bularga UNHCR ma‘lumotlar bazalari (RDF va UNData), IOM va JBG hisobotlari kiradi. Manbalar qochqinlar soni va oqimlar bo‘yicha ma‘muriy va statistik ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ingliz va rus tillarida jami 10 ta manba to‘plangan va o‘rganilgan.

UNHCR Qochqinlarni qidirish dasturi O‘zbekistonlik qochqinlar haqidagi asosiy ma‘lumot manbai hisoblanadi. Ma‘lumotlar bazasiga 1993-yildan 2022-yilgacha O‘zbekistondan ketgan qochqinlar, boshpana izlovchilar va boshqa manfaatdor shaxslar haqidagi-yil yakunlari bo‘yicha ma‘lumotlar kiritilgan. 2023-yil uchun ma‘lumotlar-yilning o‘rtalariga qadar mavjud. Ma‘lumotlar kelib chiqish va borish mamlakati, yosh guruhi va jinsi bo‘yicha saralanishi mumkin (UNHCR, 2023a).

2022-yil uchun o‘zbekistonlik qochqinlar va boshpana izlovchilar haqidagi so‘nggi ma‘lumotlar IOM hisobotlarida mavjud. 2018-yilgacha bo‘lgan qochqinlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni UNHCR ma‘lumotlariga asoslangan JBG hisobotlaridan to‘plash mumkin (De Berry & Petrini, 2011). UNDATA shuningdek, 1994-yildan 2004-yilgacha bo‘lgan davrda o‘zbekistonlik qochqinlar haqidagi ma‘lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Ma‘lumotlar qochqinlarning umumiy soniga bo‘linadi va qochqinlar kelib chiqish mamlakati yoki hudud bo‘yicha saralanishi mumkin (UNDATA, 2022).

O‘zbekistonlik qochqinlar sonini baholashning yana bir qimmatli manbalari Rossiya Federatsiyasi hududi bo‘ylab aholi soni va aholi migratsiyasining umumiy natijalari to‘g‘risidagi byulletenlardir (ROSSTAT, 2023a). Byulletenning 3-bo‘limida Rossiya Federatsiyasiga ko‘chgan qochqinlar to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlar keltirilgan. Ma‘lumotlar qochqinlar va vaqtinchalik boshpana maqomini olgan shaxslar soni bo‘yicha ajratilgan. Ma‘lumotlar to‘plami, shuningdek, Rossiya Federatsiyasining chet elda yashash joyini tark etishga va Rossiya Federatsiyasiga kelishga majbur bo‘lgan fuqarolarini tavsiflovchi alohida toifadagi majburiy ko‘chirilganlarni (ruscha "Вынужденные переселенцы" atamasidan) o‘z ichiga oladi (ROSSTAT, 2023b).

Ushbu migrantlar guruhlarini aholi punktlari toifalari (shahar yoki qishloq) bo'yicha taqsimlash alohida keltirilgan. Axborotnomada qochqinlarning yashash joylari bo'yicha yoshi va jinsiy tarkibi ham ko'rsatilgan. Biroq, bu ma'lumotni kelib chiqish mamlakat bo'yicha saralashning imkoni yo'q. Axborotnomalar har yili chop etiladi. 2018-2022-yillarga mo'ljallangan hujjatlar rus tilida mavjud.

Qochqinlarning chiqib ketishiga kelsak, UNHCR Qochqinlarni qidirish dasturi 2000-2022-yillarda boshpana izlovchilar tomonidan berilgan boshpana da'volarining ma'lumotlar to'plamini, shuningdek, tan olingan (qabul qilingan), rad etilgan (salbiy, ammo tugatilmagan) va yopilgan (ma'lum sabablarga ko'ra to'xtatilgan) boshpana qarorlari sonini o'z ichiga oladi.

2023-yil o'rtalariga kelib, dunyo bo'ylab 4 551 nafar o'zbekistonlik qochqin ro'yxatga olingan va 11 530 nafar boshpana izlovchi qayd etilgan. Mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qochqinlar va boshpana izlovchilarning 64 foizi erkaklar va 36 foizi ayollardir. Erkak qochqinlar orasida qariyb 53 foizi 18 yoshdan 59 yoshgacha bo'lganlar, 34 foizi esa noma'lum yoshda. Qochqin ayollarning 44 foizi 18 yoshdan 59 yoshgacha bo'lganlar va 33 foiz hollarda ularning yoshi noma'lum bo'lgan (UNHCR, 2023a).

O'zbekistonlik qochqinlarni qabul qilish bo'yicha yetakchi uch davlat AQSh(35%), Germaniya (25%) va Shvetsiya (11%) bo'lgan bo'lsa, o'zbekistonlik boshpana izlovchilar asosan AQSh (77%), Buyuk Britaniya 6%, Shvetsiya (4%) da joylashgan (UNHCR, 2023a). ROSSTAT ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bir nafar qochqin, O'zbekistondan ko'chib kelgan 25 nafar Rossiya Federatsiyasi fuqarosi va vaqtinchalik boshpana olgan 80 nafar shaxs ro'yxatga olingan (ROSSTAT, 2023a).


## 8-JADVAL: QABUL QILUVCHI MAMLAKAT BO'YICHA 2023-YIL O'RTALARI HOLATIGA KO'RA O'ZBEKISTONLIK QOCHQINLAR VA BOSHSPANANIZLOVCHILAR (MUTLAQ RAQAMLAR)

Borish Mamlakati	# Qochqinlar	Borish Mamlakati	# Boshpana izlovchilar
Amerika Qo'shma Shtatlari	1,504	Amerika Qo'shma Shtatlari	8,866
Germaniya	1,078	Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi	715
Shvetsiya	477	Shvetsiya	454
Fransiya	307	Korea respublikasi	408
Boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlari	675	Boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlari	465
Boshqa Yevropa davlatlari	299	Isroil	247
Boshqa davlatlar	133	Boshqa davlatlar	342
Rossiya Federatsiyasi	78	MDH davlatlari	33
Jami	4,551	Jami	11,530

2000-yildan 2023-yilgacha O'zbekistonlik qochqinlar boshpana so'rab 58 331 dan ortiq ariza topshirgan, ulardan 8 091 tasi qabul qilingan, 26 756 tasi rad etilgan va 13 654 tasi yopilgan (UNHCR, 2023a).



## 10-RASM: O‘ZBEKISTONLIK BOSHANA IZLOVCHILAR TOMONIDAN CHE EL MAMLAKATLARIDA TAQDIM ETILGAN BOSHANA ARIZALARI (OQIMI) VA ARIZALAR BO‘YICHA QARORLAR, 2018-2023-YILLAR (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: UNHCR, 2023a

- Rad etilgan arizalar
- Yopilgan arizalar
- Boshpana so‘ralgan arizalar
- Qabul qilingan arizalar

O‘zbekistonlik qochqinlar va boshpana izlovchilarning soni va oqimi, ayniqsa ta‘lim darajasi bo‘yicha ma‘lumotlarda ba‘zi kamchiliklar aniqlandi. Qochqinlarning jinsi bo‘yicha ma‘lumotlar topilmadi. Bundan tashqari, 2023-yil uchun jinsi va yoshi bo‘yicha qochqinlar soni bo‘yicha ma‘lumotlar mavjud emas. Qochqinlar haqidagi barcha ma‘lumotlar birinchi navbatda xalqaro manbalarga asoslangan.

## 9-JADVAL: O‘ZBEKISTONLIK QOCHQINLAR TO‘G‘RISIDA MAVJUD MA‘LUMOTLARDAGI BO‘SHLIQLAR, 2023-YIL

O‘zbekistonlik qochqinlar	Eng so‘nggi mavjud ma‘lumotlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
# Qochqinlar							
# Qochqinlar jins bo‘yicha							
# Qochqinlar borish davlati bo‘yicha							
# Qochqinlar ta‘lim darajasi bo‘yicha							
# Qochqinlar yosh bo‘yicha							
# Qochqinlar chiqib ketishi							
# Qochqinlar jins bo‘yicha							
# Borish mamlakati bo‘yicha qochqinlar							

## 4.3 O‘ZBEKISTONDAGI ICHKI KO‘CHISH

O‘zbekistonda ichki ko‘chish haqidagi ma‘lumotlar kamdan-kam hollarda mahalliy guruhlar tomonidan to‘planadi. Ma‘lumotlarning aksariyati xalqaro ma‘lumotlar bazalariga asoslangan. Ichki ko‘chish bo‘yicha global ma‘lumotlar bazasi (IKMM Ma‘lumotlar Portali), Ichki ko‘chish monitoringi markazi (IKMM), Norvegiya qochqinlar kengashi (NQQ) Global IDP Loyihasi, IOM va Jahon banki hisobotlari va nashrlari O‘zbekistondagi ichki ko‘chish bo‘yicha asosiy bilim bazasini tashkil etadi. Barcha manbalar ingliz tilida, OAVdagi ayrim maqolalar o‘zbek va rus tillarida mavjud.

O‘zbekistonda ichki ko‘chirilganlarning borligi va ichki ko‘chish holatlari faqat 2000-, 2020- va 2022-yillarda qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga (FVV) 2018-2023-yillarda aholini ko‘chirish va evakuatsiya qilish holatlari yuzasidan ma‘lumot olish uchun rasmiy xat yuborildi. Biroq, vazirlikdan so‘ralgan ma‘lumotlarni olishning iloji bo‘lmadi (FVV, 2023).

IKMM ma‘lumotlar portali O‘zbekistondagi ichki ko‘chirilgan aholi soni va oqimi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi (IKMM, 2023a). Ma‘lumotlar bazasi ma‘lumotlarni ichki ko‘chish holatlari va ichki ko‘chirilgan aholi soni bo‘yicha saralash imkonini beradi. Raqamlar mojarolar va zo‘ravonlik yoki tabiiy ofatlar kabi ko‘chish sabablari bo‘yicha ham tasniflanadi. Vaqt oralig‘i 2008-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan ma‘lumotlarni ko‘rish imkonini beradi. 2009-yildan 2014-yilgacha bo‘lgan davr uchun mojarolar natijasida paydo bo‘lgan ichki ko‘chirilgan aholi raqamlari mavjud. Portalda to‘plangan yana bir ma‘lumotlar – bu 2020- va 2022-yillarda tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelgan ichki ko‘chishlar soni (miqdori va oqimi) ham mavjud. Har bir hodisa bo‘yicha batafsil ma‘lumotni alohida jadvalda ko‘rish mumkin (voqea nomi, ta‘sirlangan mamlakatlar, xavf turi, boshlanish va tugash sanalari).

O‘zbekistonda 2000-yilda sodir bo‘lgan yagona ma‘lum bo‘lgan majburiy ichki ko‘chirish holati IKMM, NQQ va JBG hisobotlarida keltirilgan. IKMM va NQQning qo‘shma hisobotlari 2001-yildan 2009-yilgacha mojarolar va zo‘ravonlik (son va oqim) natijasida kelib chiqqan ichki ko‘chirilgan aholi sonini taqdim etadi (NQQ, IKMM, 2010). Ichki ko‘chirilgan aholining kelib chiqishi va manzili haqidagi ma‘lumotlar NQQ hisobotlarida tasvirlangan (NQQ, IKMM, 2005). Shuni ta‘kidlash kerakki, O‘zbekistonda 2001-yildan 2009-yilgacha ichki ko‘chirilgan aholi ko‘rsatkichlari yangilangan ma‘lumotlarning yo‘qligi va hukumat ruxsatini olishdagi qiyinchiliklar tufayli turg‘unligicha qolgan (Albuja, Anvar va Bou, 2011). NQQ hisobotlarida, shuningdek, O‘zbekiston hukumati tomonidan bildirilgan va turli xalqaro tashkilotlar tomonidan to‘plangan ichki ko‘chirilgan aholi haqida ma‘lumotlar mavjud (NQQ, 2004). JBG nashri, shuningdek, ichki ko‘chirilgan aholi va ularning kelib chiqish joylarini sanab o‘tadi. JBG o‘z hisobotida asosiy manba sifatida IKMM ma‘lumotlaridan foydalangan (De Berri va Petrini, 2011).

IKMM 2021-yilgi hisobotida O‘zbekistondagi tabiiy ofatlar oqibatida odamlarning ichki ko‘chishi (oqimlari) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan (IKMM, 2021). Ko‘chish (oqim) ma‘lumotlari IKMM veb-sahifasida ham mavjud (IKMM, 2023b). 2008–2022-yillar uchun ichki ko‘chish (soni) ma‘lumotlari IOM tomonidan taqdim etilgan (IOM, 2023b). Mahalliy internet ommaviy axborot vositalaridagi ko‘plab nashrlarda 2020- va 2022-yillardagi ichki harakatlar to‘g‘risida davlat idoralarning hisobotlari va ma‘muriy ma‘lumotlari mavjud (Gazeta.uz, 2020, 2022b).

### 1-XARITA: O‘ZBEKISTONDA ICHKI KO‘CHIRILGAN AHOLI VA ICHKI KO‘CHISH HODISALARI, 2000-2022-YILLAR



Manba: IKMM Ma‘lumotlar portali, 2010; 2023

Eslatma. Bu xarita faqat tasvirlash maqsadida qo‘llanildi. Ushbu xaritada qo‘llanilgan chegaralar, nomlar va belgilar IOM tomonidan rasmiy tasdiqlangan yoki qabul qilinganligini anglatmaydi.

## 10-JADVAL: O‘ZBEKISTONDA ICHKI KO‘CHISH TO‘G‘RISIDA MAVJUD MA‘LUMOTLARDAGI BO‘SHLIQLAR, 2023-YIL

O‘zbekistonda ichki ko‘chish	Eng so‘nggi mavjud ma‘lumotlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
# Ichki ko‘chirilganlar							
# Ichki ko‘chirilganlar soni jins bo‘yicha							
# Ichki ko‘chirilganlar kelib chiqish joyi bo‘yicha							
# Ichki ko‘chirilganlar ko‘chib borgan joyi bo‘yicha							
# Ichki ko‘chirilganlar bandlik holati bo‘yicha							
# Ichki ko‘chirilganlar ta‘lim darajasi bo‘yicha							
# Ichki ko‘chirilganlar yosh bo‘yicha							
# Ichki ko‘chirilganlar oqimi							
# Ichki ko‘chirilganlar oqimi jins bo‘yicha							
# Ichki ko‘chirilganlar oqimi yosh bo‘yicha							
# Ichki ko‘chirilganlar kelib chiqish va borish hududi bo‘yicha							

2020-yilning may oyida Sirdaryo viloyatidagi Sardoba to‘g‘oni buzilganidan keyin 70 000 ga yaqin odam uylaridan evakuatsiya qilindi (IOM, 2023b). Evakuatsiya qilingan fuqarolar Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida tashkil etilgan maxsus muassasalarga joylashtirildi (Gazeta.uz, 2020). O‘zbekiston Senati ma‘lumotlariga ko‘ra, joriy yilda evakuatsiya qilinganlarning 83,4 foizi o‘z yashash joyiga qaytgan (O‘zbekiston Respublikasi Senati, 2020-yil). 2022-yilda Sirdaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlari hududidan kuchli yomg‘irdan so‘ng suv toshqini ostida qolgan 170 ga yaqin aholi evakuatsiya qilingan.

Ichki ko'chish ma'lumotlarini tahlil qilish, ichki ko'chirilganlar soni va oqimida jins, bandlik holati, ta'lim darajasi va yoshi bo'yicha bo'shliqlarni aniqladi. Mavjud ma'lumotlar manbalari ichki ko'chirilganlarning soni va oqimidan tashqarida bo'lib, ularning kelib chiqish joyi va ko'chishi haqida umumiy ma'lumot beradi.

## 5. ICHKI MIGRATSIYA

O'zbekistondagi ichki migratsiya bo'yicha mavjud bilimlar bazasi O'ZSTATning davriy ma'lumotlar to'plamiga, ma'muriy ma'lumotlarga ega hisobotlar va yilnomalariga, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (UNDP, IOM) tomonidan qo'llab-quvvatlangan ijtimoiy va statistik tadqiqotlar natijalariga tayanadi. Ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarida mavjud bo'lib, eng ko'p ma'lumotlar so'nggi olti yilni qamrab oladi.

Biroq, ushbu tadqiqot O'zbekistondagi ichki migratsiya bo'yicha umumiy ma'lumotlarni aniqlay olmadi, faqat 2000-yildan 2023-yilgacha bo'lgan ichki migrantlar oqimi bo'yicha ma'lumotlar mavjudligi aniqlandi. IOM O'ZSTATdan ichki migrantlar soni to'g'risida ma'lumot taqdim etishni rasmiy tarzda so'ragan hamda ichki migrantlar oqimi haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

O'ZSTAT demografik-statistik yilnomalari ichki migrantlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu yilnomalarda ko'chib kelish va ketishlar batafsil bayon etilgan bo'lib, jo'nash joyi yoki kelib chiqish joyi bo'yicha guruhlangan hamda mintaqalar ichidagi va mintaqalar orasidagi harakatlarni ajratib turadi. 2018-2022-yillar uchun demografik yilnomalar o'zbek va rus tillarida mavjud.


O'ZSTATning choraklik va yillik hisobotlari ichki harakatchanlik rasmiy statistikasini hisoblash uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, O'ZSTAT 2000-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi ochiq demografik ma'lumotlar sifatida ko'chib ketgan va kelganlarning yillik raqamlarini hududlar bo'yicha e'lon qiladi. Mehnat bozori va bandlik ma'lumotlari ichki harakatlanish jarayonlarini tahlil qilish uchun qo'shimcha ma'lumot sifatida ham foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, IOM rasmiy xati asosida, O'ZSTAT tomonidan 2018-2022-yillar uchun ichki ko'chib kelish va ko'chib ketishlar to'g'risida jins, mintaq va shahar/qishloq joylari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etildi (O'ZSTAT, 2023d). Ushbu ko'rsatkichlar aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda ichki ishlar organlari tomonidan tuzilgan kelish yoki ketishni statistik hisobga olish talonlariga asoslanadi. IOMning 2023-yildagi O'zbekistondagi migratsiya holati to'g'risidagi hisobotida 2022-yil uchun O'ZSTAT ichki migratsiya ma'lumotlari tahlili ham mavjud (IOM, 2023a).

O'zbekistondagi ichki migratsiya bo'yicha cheklangan ma'lumotlar, tadqiqot va ilmiy adabiyotlarga qaramasdan, 2008-yilda UNDP va Shveytsariya elchixonasining Gender dasturi ko'magida chop etilgan mehnat migratsiyasi bo'yicha muhim to'plam alohida ajralib turadi. Unda 2006-2007-yillarda o'tkazilgan va ichki va tashqi migratsiya muammolariga bag'ishlangan ijtimoiy so'rovnoma natijalari aks ettirilgan materiallar kiritilgan. Shuningdek, Maksakovaning "O'zbekiston aholisining ichki migratsiyasi: ijtimoiy jihatlar" maqolasida Toshkent shahrining norasmiy mehnat bozorlarida mehnat migrantlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari taqdim etilgan va 2001-yil holatiga ko'ra O'zbekistondagi ichki mehnat migratsiyasi holatiga baho berilgan. To'plamga, shuningdek, "TAHLIL" ijtimoiy tadqiqotlar markazi tomonidan O'zbekistonning uchta viloyatida o'tkazilgan miqdoriy va sifat so'rovlari asosida ichki mehnat migratsiyasining turli jihatlarini, jumladan, bandlik, mehnat va yashash sharoitlari, shuningdek, ijtimoiy va huquqiy himoya masalalari o'rganilgan va ichki migratsiya bo'yicha tadqiqot natijalari kiritilgan. (Abdullayev, 2008). O'zbekistonda 1980-yillardagi migratsiya jarayonlari haqidagi ba'zi ma'lumotlarni mahalliy tadqiqotchilarning nashrlarida topish mumkin (Saipova, 2021).

2022-yilda O'zbekistonning bir viloyatidan boshqa viloyatiga 212 ming 530 nafar fuqaro ko'chib o'tgan. 2022-yilda ichki migrantlar oqimi 2018-yilga nisbatan 1,4 baravarga oshgan. Taxminan 60 foiz ayollar va 40 foiz erkaklarni tashkil etgan ichki migrantlar 2020- va 2021-yillardagi tendensiyaga mos ravishda 2022-yilda doimiy yashash joyini o'zgartirgan. Aholining ko'chib kelishi ham, ketishining ham asosiy hududi Toshkent shahri hisoblanadi. 2022-yilda poytaxtga 97 702 nafar aholi ko'chib kelgan, bu umumiy ichki migratsiya oqimining 46 foizini tashkil qiladi. Ularning deyarli 55 foizi ayollar, 45 foizi erkaklar edi. Shu bilan birga, 61 716 nafar aholi (29 foiz) shaharni tark etgan, shu jumladan, 56 foiz ayollar va 44 foiz erkaklar. Poytaxtga ichki migratsiya Toshkent viloyatiga migratsiyaga nisbatan 4 baravar va respublikaning boshqa hududlariga migratsiyaga nisbatan 10-16 baravar ko'p bo'lgan (O'ZSTAT, 2023d). Migrantlar asosan ishga joylashish va ta'lim olish maqsadida ko'chib o'tadilar (IOM, 2023c).


## 11-RASM: O‘ZBEKISTONDA ICHKI MIGRANTLAR OQIMI (JINSI BO‘YICHA), 2018-2022-YILLAR (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: O‘ZSTAT, 2023d

Shuningdek, ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq joylarga ko‘chib o‘tishga qaraganda ko‘proq odamlar qishloq joylarini tark etishmoqda. 2022-yilda 72 012 kishi qishloqni tark etgan, 50 146 kishi qishloqqa ko‘chib kelgan. Qishloq joylardan shaharlarga ko‘chgan ayol migrantlar oqimi erkak migrantlarga qaraganda ikki baravar ko‘p bo‘lgan (O‘ZSTAT, 2023d).

## 12-RASM: O‘ZBEKISTONDAGI ICHKI KO‘CHISH MINTAQAQALAR BO‘YICHA, 2022-YIL (MUTLAQ RAQAMLAR)



Manba: O‘ZSTAT, 2023d

■ Mintaqaga kelganlar ■ Mintaqadan ketganlar

Rasmiy statistikada norasmiy mehnat sektoridagi mehnat migratsiyasi oqimi ham hisobga olinmaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, ayrim hududlarda norasmiy mehnat migratsiyasi keng ko‘lamli bo‘lishi mumkin. Ichki mehnat migratsiyasida asosan qishloq aholisi qatnashadi, chunki qishloq joylaridagi mehnat bozoridagi sharoit shaharlarga qaraganda noqulaydir (Abdullayev, 2008).

## 11-JADVAL: O‘ZBEKISTONDA ICHKI MIGRATSIYA BO‘YICHA MAVJUD MA’LUMOTLARDAGI BO‘SHLIQLAR, 2023-YIL

O‘zbekistondagi ichki migratsiya	1970-1980 yillar oralig‘ida	1980-1990 yillar oralig‘ida	1990-2000 yillar oralig‘ida	2000-2010 yillar oralig‘ida	2010-2020 yillar oralig‘ida	2020-yildan keyin
# Ichki migrantlar						
# Ichki migrantlar jins bo‘yicha						
# Ichki migrantlar yosh bo‘yicha						
# Ichki migrantlar jo‘nab ketish joyi bo‘yicha (qishloq/shahar)						
# Ichki migrantlar kelish joyi bo‘yicha (qishloq/shahar)						
# Ichki migrantlar kelish joyida ish turi bo‘yicha						
# Ichki migrantlar ta‘lim darajasi bo‘yicha						
# Ichki migrantlar (oqimi)						
# Ichki migrantlar oqimi jins bo‘yicha						

Ichki migrantlar soni, ularning jinsi va yoshi bo‘yicha demografik tuzilishi haqida ma‘lumot yo‘q. Rasmiy statistik ma‘lumotlar faqat ma‘muriy ma‘lumotlarni taqdim etadi, migrantlarning ichki oqimi, ayniqsa, mamlakat yoki ma‘lum bir mintaqada yashash joyining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Ma‘lumotlar jinsi, jo‘nab ketish va kelish joyi bo‘yicha ajratilgan. Mehnat va ichki migratsiyaning boshqa toifalari, jumladan, ichki migrantlarning kasbiy va ta‘lim darajasi to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar mavjud emas.

## 6. KATTA MA'LUMOTLAR

O'zbekistonda Katta ma'lumotlar (Big Data) migratsiya jarayonlarini o'rganishda hali keng tarqalmagan. Katta ma'lumotlar tahlili asosan IT, telekommunikatsiya va tijorat korxonalarida biznes jarayonlarini yaxshilash va konsalting xizmatlarini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Masalan, telekommunikatsiya kompaniyalari mobil internet-trafikni o'rganib, butun mamlakat bo'ylab ma'lum manzillarga yo'naltirilgan trafikni tahlil qiladi (Kultura.uz, 2022). O'ZSTAT katta hajmdagi axborotni to'plash uchun katta ma'lumotlar texnologiyasidan foydalanadi. Telefon orqali o'tkazilgan so'rovlar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalari natijasida olingan ma'lumotlar "Ma'lumotlar ko'li" deb nomlangan yagona ma'lumotlar bazasiga jamlanadi, bu yerda ma'lumotlar avtomatik tarzda qayta ishlanadi (O'ZSTAT, 2023d).

Shu bilan birga, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridan migratsiya oqimlarini katta ma'lumotlar asosida o'rganish rossiyalik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda. Ushbu tadqiqotlarning dolzarbligi Markaziy Osiyo davlatlaridan migratsiya ko'lami va barqarorligidadir. Sizing e'tiboringizga katta ma'lumotlardan foydalangan holda O'zbekistondan migratsiya oqimlarini o'rganishga bag'ishlangan materiallar to'plamini taqdim etamiz. Barcha manbalar rus va ingliz tillarida mavjud.

Rossiyalik tadqiqotchilar Sapenko va Yurevich (2022) Markaziy Osiyo davlatlaridan Rossiya Federatsiyasiga migratsiya oqimini bashorat qilish uchun katta ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishdi. Ular o'z ishlarida Internetdagi qidiruvlar va Markaziy Osiyo davlatlaridan Rossiya Federatsiyasiga migratsiya oqimi o'rtasidagi statistik bog'liqlikni taxmin qildilar. Tahlil davomida Rossiya Federatsiyasi bozoridagi bo'sh ish o'rinlari bilan bog'liq so'rovlarga e'tibor qaratilib, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston aholisining Google va Yandex qidiruv so'rovlaridan foydalanildi. Keyin to'plangan ma'lumotlar ROSSTATning migratsiya statistikasi bilan taqqoslandi. Natijalar inson oqimlari dinamikasi va oldingi so'rovlar o'rtasidagi o'rtacha munosabatni ko'rsatdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, migratsiyadagi tebranishlar ko'pincha qidiruv hajmidagi mos o'zgarishlardan oldin sodir bo'ladi. (Sapenko Yurevich, 2022).

Milliy tadqiqot universiteti Oliy iqtisodiyot maktabi (Rossiya Federatsiyasi) va Rossiya akademiyasining Sotsiologiya instituti olimlari tomonidan koronavirus pandemiyasi davrida Rossiya Federatsiyasidagi mehnat migratsiyasi holatini o'rganish uchun kompyuter yordamida telefon orqali suhbat usulidan foydalanilgan. Tadqiqotning maqsadi pandemiyaning migrantlar farovonligiga ta'sirini, ularning kasbi va Rossiya Federatsiyasida qolish bo'yicha kelajakdagi niyatlarini aniqlash edi. Moskva va Moskva viloyatida ishlagan Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston va Ukrainadan kelgan mehnat migrantlari o'rtasida suhbatlar o'tkazildi. Keyin natijalar MDHning boshqa davlatlari fuqarolari o'rtasida o'tkazilgan onlayn so'rov ma'lumotlari bilan solishtirildi. Kompyuter yordamida telefon orqali suhbat so'roviga ko'ra, aprel oyida Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan migrantlarning atigi 52,8 foizi ishlagan va har ikkinchi migrant ishdan ayrilgan. Biroq, so'rovnoma ishtirokchilarining 78,9 foizi Rossiya Federatsiyasida qolishga tayyorligini bildirgan va faqat 10 foizi pandemiya davrida o'z vatanlarida bo'lishni xohlagan (Denisenko, Mukomel, 2020).

Rossiya Fanlar akademiyasi Sotsiologiya instituti ilmiy xodimi Mukomel (2021) tomonidan Rossiya Federatsiyasi mehnat bozoridagi Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistondan kelgan yuqori malakali migrantlar bo'yicha o'tkazilgan yana bir tadqiqotda kompyuter yordamida telefon orqali suhbatning bir nechta so'rovlari natijalaridan foydalanilgan. Muallif ushbu migrantlarning iqtisodiy faoliyati, kasblari va daromadlarini COVID-19 pandemiyasi oldidan va pandemiya davrida ularning malakasi past vatandoshlari va boshqa postsovet mamlakatlaridan kelgan yuqori malakali migrantlar bilan solishtirish orqali tahlil qiladi. Asosiy xulosa shundan iboratki, Markaziy Osiyodan kelgan yuqori malakali migrantlar boshqa mamlakatlardan kelgan xuddi shunday malakali migrantlar bilan yaxshi ish o'rinlari uchun raqobat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Biroq, ular Rossiya Federatsiyasini tark etmaslikka, aksincha, pandemiyadan keyingi davrda Rossiya mehnat bozoridagi mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, pandemiyaga qarshi moslashuvchanlik va chidamlilikni namoyish etishi aniqlangan (Mukomel, 2021).

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Xalq xo'jaligi va Davlat Boshqaruvi Akademiyasining Migratsiya va etnik kelib chiqishini o'rganish guruhi a'zolari o'zlarining ilmiy loyihalari doirasida markaziy osiyoliklarni Survey Monkey platformasidagi so'rovlarda ishtirok etishga jalb qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardagi maqsadli reklamadan faol foydalandilar. Ular O'zbekistondan kelgan birinchi va ikkinchi avlod migrantlari bilan bir qator so'rovlar o'tkazdilar. So'rov natijalari va to'plangan ma'lumotlar bazasi asosida tadqiqotchilar Markaziy Osiyo davlatlaridan Rossiya Federatsiyasiga migratsiya bo'yicha ko'plab maqolalar yozishgan (Varshaver, Ivanova, Rocheva, 2019; Rocheva, Varshaver, 2020a; Varshaver, Ivanova, Rocheva, 2020b).

O'zbekistonda Katta ma'lumotlardan foydalangan holda migratsiya jarayonlari yaxshi o'rganilmagan. Rossiyalik olimlarning O'zbekistondan kelgan migrantlar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari keyingi tahlil uchun qiziqish uyg'otadi. Ular Rossiya Federatsiyasidagi migrantlarning ahvoli, ularning tashvishlari, rejalari va atrofdagi voqelikka munosabati haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Bunday tadqiqotlarni O'zbekistonda o'tkazish katta salohiyatga ega bo'lib, ham tashqi migratsiya oqimlarini, ham mamlakat ichidagi ichki migratsiyani tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Masalan, geolokatsiya teglari mamlakat bo'ylab aholi harakatini tahlil qilishga yordam beradi. Internet qidiruv so'rovlarini tahlil qilish xorijda ham, mamlakat ichida ham migratsiyaning maqsadlari va sabablari haqida ma'lumot beradi. Ijtimoiy tarmoqlar tadqiqotlar uchun ma'lum auditoriyani maqsad qilib olish imkonini beradi.

## 7. MIGRATSIIYA SIYOSATI VA TEGISHLI TASHKILOTLAR

O'zbekistonning migratsiya siyosati migratsiya jarayonlarini tartibga soluvchi qator qonun va me'yoriy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro konvensiya va shartnomalarga asoslanadi. Hukumat fuqarolarning xorijga mehnat migratsiyasi jarayonlarini soddalashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu uyushmagan mehnat migratsiyasi ko'lamini qisqartirish, bandlikka ko'maklashish va xorijdagi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya va qaytgan mehnat migrantlarining bandligini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Immigratsiya masalasida O'zbekiston hukumati xorijlik migrantlarga mamlakat fuqarolari bilan bir qator ijtimoiy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini beradi hamda ularga kirish va ma'muriy tartib-taomillarni osonlashtiradi. Keyingi yillarda mahalliy biznes O'zbekistonga chet ellik malakali mutaxassislarni jalb qilmoqda. Noqonuniy migratsiya sohasida O'zbekistonda chegara xavfsizligini ta'minlash, kontrabanda va odam savdosiga qarshi kurashish, odam savdosidan jabrlanganlarning vataniga qaytishi, rehabilitatsiyasi va reintegratsiyasiga ko'maklashish choralari kuchaytirilmoqda.

O'zbekistondagi migratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi mahalliy manfaatdor tomonlar o'z mas'uliyati doirasidagi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga hissa qo'shadigan keng doiradagi ishtirokchilarni qamrab oladi.

O'zbekiston Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi (MFRBB) IIVning yurisdiksiyasida bo'lib, mamlakatda immigratsiya siyosatini amalga oshirish va immigratsiya qoidalarining bajarilishini ta'minlash uchun mas'ul davlat organi hisoblanadi (MFRBB, 2019).

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (BKQV) huzuridagi Tashqi mehnat migratsiya agentligi (TMMA) orqali mehnat migratsiyasi siyosatini samarali amalga oshirish uchun javobgardir. TMMA O'zbekiston fuqarolariga ishga joylashish, o'qitish va moslashishda yordam berish bilan shug'ullanadi. TMMA shuningdek, milliy migrantlarni xorijda va mamlakatda huquqiy va ijtimoiy himoya qiladi. Siyosatni ishlab chiqish nuqtai nazaridan TMMA tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlari bo'yicha ma'muriy va statistik ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi, milliy migratsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradi. TMMA O'zbekistonning har bir hududida viloyat hokimining tashqi migratsiya masalalari bo'yicha yordamchilari boshchiligidagi filiallari va xorijda vakolatxonalari mavjud. TMMAning Rossiya Federatsiyasida 26 ta, Qozog'istonda to'rtta va Turkiya Respublikasi, Koreya Respublikasi va Yaponiyada bittadan vakolatxonalari mavjud (US-DOS, 2023). O'zbekiston TMMA migratsiya siyosatini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar xarajatlari BKQV huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tomonidan qoplanadi (Lex.uz, 2020).

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi (IHMM) O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltiruvchi milliy qonunchilikni ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Senati huzuridagi Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha Milliy komissiyasi va uning respublikaning har bir mintaqasidagi hududiy komissiyalari davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish huquqiga ega shuningdek davlat tashkilotlari, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashda davlat dasturlarini ishlab chiqadi va xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi. (Tillabaev, 2021).



O'ZSTAT aholining demografik holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi hamda chet davlatlarga jo'nab ketish va kelishlar bo'yicha jins va mintaqalar bo'yicha statistik ma'lumotlarni tarqatadi. BKQV huzuridagi Mehnat bozori tadqiqotlari instituti bandlik, migratsiya jarayonlari va mehnat munosabatlari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tadqiqotlar olib boradi.

Bu boshqarma va agentliklarning barchasi migratsiya bilan bog'liq masalalarning turli jihatlarini bo'yicha bir-biri bilan hamkorlik qiladi. Biroq ularning hech biri O'zbekistonda yagona migratsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish uchun javobgar emas.

Migratsiya masalalari bilan shug'ullanuvchi bir qator NNTlar O'zbekistondagi va xorijdagi migrantlarni qo'llab-quvvatlash, himoya qilish va insonparvarlik yordamini ko'rsatadi. "Istiqbolli avlod" Respublika ijtimoiy axborot markazi O'zbekistondagi odam savdosi va zo'rvonlikning boshqa turlariga qarshi kurash bo'yicha yetakchi NNTlardan biri hisoblanadi ("Istiqbolli avlod", 2023). "Istiqbolli avlod" milliy va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikda odam savdosiga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish, mehnat migrantlari va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirdi. "Istiqbolli avlod"ning O'zbekistonning barcha hududlarida vakolatxonalarini mavjud.

2018-yildan buyon O'zbekiston hukumati xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solish, O'zbekiston fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish, ularni o'qitish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, mehnat migrantlarining oilalarini qo'llab-quvvatlash va ularning xavfsiz yo'lini ta'minlash bo'yicha xalqaro shartnomalarni kengaytirish bo'yicha qator qarorlar qabul qildi. (2-Jadvalga qarang).

Shuningdek, O'zbekiston hukumati o'z migratsiya siyosatida xorijdagi o'zbek vatandoshlarining qaytishini rag'batlantirishga, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga jalb etilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga intilmoqda. Xususan, 2018-yilda hukumat tomonidan xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik qilish sohasida O'zbekiston Respublikasining Davlat siyosati Konsepsiyasi qabul qilingan (Lex.uz, 2018d). 2021-yildan boshlab "Vatandoshlar" jamoat fondi faol ishlamoqda. U xorijdagi vatandoshlarni birlashtirish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishga ko'maklashish, ularning tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan. Bu vazifalar 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi (Lex.uz, 2022b).

Noqonuniy migratsiya muammolarini hal qilish maqsadida O'zbekiston milliy qonunchiligiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, 2020-yilda "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Shuningdek, hukumat chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekistondagi huquqiy holatini, ularning huquq va majburiyatlarini, ular uchun kirish va chiqish tartibini belgilab berdi (Lex.uz, 2021a). O'zbekiston 1951-yildagi BMT ning Qochqinlar maqomi to'g'risidagi Konvensiyaga a'zo emas. Shu bilan birga, milliy qonunchilikda xalqaro himoya, boshpana izlovchilar va qochqinlar bilan bog'liq bir qator qoidalar mavjud. Bunday qoidalar mamlakat Konstitutsiyasi va uning asosiy qonunchilik kodekslarida, shuningdek, qonunosti hujjatlarida mavjud (Kiseleva, 2022). O'zbekiston mintaqaviy darajada migratsiya sohasida ham ikki tomonlama, ham MDH, Yevropa Ittifoqi va YXHT kabi mintaqaviy milliy birlashmalar doirasida hamkorlik qiladi.

MDH O'zbekistonning migratsiya masalalari bo'yicha asosiy mintaqaviy hamkori hisoblanadi. O'zbekiston MDHga a'zo davlatlarning Mehnat, migratsiya va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bo'yicha maslahat kengashi, MDHga a'zo davlatlarning Migratsiya organlari rahbarlari kengashi, MDHga a'zo davlatlar Parlamentlararo assambleyasi ishida ishtirok etadi. O'zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan migratsiya, boshpana va chegaralarni boshqarish bo'yicha hamkorlik dasturlarini amalga oshirmoqda (YEID, 2021-yil). Masalan, tegishli hamkor tashkilotlar "O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi" hamkorlik kengashining Parlament hamkorligi qo'mitasi va "O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi" taraqqiyot hamkorligi quyi qo'mitasi yig'ilishlarini har yili o'tkazadi (IHMM, 2022b). O'zbekiston va YXHT mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirmoqda. BKQV va TMMA, Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha Milliy komissiya YXHTning O'zbekistondagi loyihalari hamkorlaridir (YXHT, 2021). AQSh Xalqaro Taraqqiyot agentligi (USAID) O'zbekistonda ham loyihalarni amalga oshiradi. Xususan, USAID Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha Milliy komissiya va "Istiqbol Avlodi" NNT bilan hamkorlikda migrantlar va ularning oilalari uchun bir nechta axborot va maslahat markazlarini ochgan (AQSHning O'zbekistondagi elchixonasi, 2023).

O'zbekiston BMT va uning agentliklari bilan migratsiya masalalari bo'yicha faol hamkorlik qiladi. Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) O'zbekistonga migratsiya masalalari bo'yicha maslahat beruvchi asosiy manfaatdor tomonlardir. O'zbekiston IOM ga 2018-yilda a'zo bo'lgan. Hozirda IOM O'zbekiston hukumati bilan keng ko'lamlı tematik yo'nalishlar jumladan, mehnat mobilligi va inson rivojlanishi, migratsiya va sog'liqni saqlash, odam savdosining oldini olish, atrof-muhit va iqlim o'zgarishi, migrantlarni himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish bo'yicha hamkorlik qiladi.

O'zbekiston hukumati migratsiya masalalariga oid aksariyat xalqaro konvensiyalarni hali ratifikatsiya qilmagan. Xususan, O'zbekiston Markaziy Osiyo va MDHda BMTning Qochqinlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi Konvensiyasi va uning 1967-yilgi Protokolini imzolamagan yagona davlat bo'lib qolmoqda. Biroq, bu yo'nalishda ba'zi qadamlar qo'yildi. O'zbekiston Inson huquqlari bo'yicha kengashning 2018-yilda bo'lib o'tgan 30-sessiyasida (UNHCR, 2022-yil) BMTga a'zo davlatlarning ko'pchiligiga qo'shilish va ushbu konvensiyalarga a'zo bo'lish istagini bildirgan. 2020-yildan buyon IHMM va UNHCR O'zbekistonda fuqaroligi bo'lmaganlik holatlarini kamaytirish va oldini olish hamda qochqinlarni himoya qilish bo'yicha Universal davriy sharh tavsiyalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik qilib kelmoqda (Yuz.uz, 2023).

## 12-JADVAL: O'ZBEKISTON TOMONIDAN RATIFIKATSIYA QILINGAN XALQARO KONVENSIYALAR

QONUNLAR	RATIFIKATSIYA
1949-yilgi Mehnat migrantlari to'g'risidagi Xalqaro mehnat tashkiloti Konvensiyasi <sup>a</sup>	Yo'q
1951-yilgi Qochqinlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya <sup>b</sup>	Yo'q
1954- va 1961-yilgi Fuqarosizlik holatlarini kamaytirish to'g'risidagi BMT Konvensiyasi	Yo'q
1962-yilgi Teng muomala (ijtimoiy ta'minot) to'g'risidagi Konvensiya	Yo'q
1967-yilgi Qochqinlar maqomi to'g'risidagi Protokol	Yo'q
1975-yilgi Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat migrantlari Konvensiyasi	Yo'q
1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya	Ha, 1994 (UNTC, 2023a)
1990-yilgi Barcha mehnat migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya	Yo'q
2000-yilgi BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiyani to'ldiruvchi Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bostirish va jazolash to'g'risidagi Protokol.	Ha, 2008 (UNTC, 2023b)
<b>Jami</b>	<b>2/9</b>

## 13-JADVAL. O‘ZBEKISTONNING MIGRATSIYA BO‘YICHA MILLIY QONUNCHILIGI

Immigratsiya	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.03.2020 sanasidagi O‘RQ-610-son “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida” (Lex.uz, 2020b)	Ushbu Qonun fuqarolikni olish va tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Fuqarolik tug‘ilish, bola asrab olish yoki fuqarolikni qabul qilish va tiklash yo‘li bilan olinishi mumkin. Fuqarolikni chet davlatda tug‘ilgan mamlakat fuqarolarining farzandlari olishlari mumkin.
	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.11.1996 sanasidagi 408-son (Lex.uz, 1996)	Hujjat xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibini belgilaydi.
	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 04.06.2021 sanasidagi O‘RQ-692-son. “Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasidagi huquqiy holati to‘g‘risida” (Lex.uz, 2021a)	Qonunda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasidagi huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari, shuningdek, ularning javobgarligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olish, O‘zbekistonga kirish va undan chiqish tartibi belgilangan.
	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2019 sanasidagi O‘RQ-579-son (Lex.uz, 2019a)	Hujjat chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha bo‘lish qoidalarini buzganligi uchun javobgarligi liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida.
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.11.2018. sanasidagi PQ-4008-son (Lex.uz, 2018a)	Hujjat O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning malakali mutaxassislari tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini belgilaydi.
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.08.2018. sanasidagi PQ-3924-son (Lex.uz, 2018b)	Hujjat chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi.
	Emigratsiya	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 05.07.2018 sanasidagi PQ-3839-son " O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" (Lex.uz, 2018c)
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.08.2019 dagi PF-5785-son “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida” (Lex.uz, 2019b)		Hujjat mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan uy-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash, moliyaviy yordam, hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish masalalarida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilaydi.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2020 dagi PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (Lex.uz, 2020c)		Hujjatda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularga ko‘maklashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan.

Emigratsiya	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.07.2021 dagi PQ-5205-son "Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (Lex.uz, 2021b)	Hujjat xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilaydi.
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.03.2022 sanadagi PQ-149-son (Lex.uz, 2022a)	Hujjatda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan.
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 sanadagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" (Lex.uz, 2022b)	Hujjatda xavfsiz, tashkiliy va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash, samarali migratsiya siyosatini yuritish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari tomonidan xorijdagi O'zbekiston fuqarolariga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilangan.
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.10.2018 sanadagi PQ-3982-son "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (Lex. uz, 2018d)	Hujjat O'zbekiston Respublikasining vatandoshlar bilan hamkorlikdagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlaydi hamda uning asosiy maqsadlarini belgilab beradi. Vatandoshlarning O'zbekistonda kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, ularning salohiyatini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashga jalb etish konsepsiyaning asosiy vazifalaridan biridir
Odam savdosi	O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 17.08.2020 sanadagi O'RQ-633-son "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida (Lex.uz, 2020d)	Qonun odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini va mas'ul organlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Qonunda odam savdosiga qarshi kurashish va uning oldini olish, odam savdosi qurbonlarini aniqlash va himoya qilishning o'ziga xos jihatlari ham belgilab berilgan.
Qochqinlar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.05.2017. sanadagi PF-5060-son "O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" (Lex.uz, 2017)	Hujjatda kim siyosiy boshpana olishi va kimga berilmasligi belgilab qo'yilgan, shuningdek, siyosiy boshpana olish va uni yo'qotish tartibi belgilab berilgan. (Kiselyeva E., 2022).
	O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.06.2021 sanadagi O'RQ-692-son "O'zbekiston respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida" (Lex.uz, 2021a)	Qonunda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga siyosiy boshpana berish (8-modda), shuningdek, identifikatsiya kartasini olish (9-va 10-moddalar) to'g'risidagi moddalar mavjud.

## 8. PUL O‘TKAZMALARI

O‘zMB, xalqaro tashkilotlar va xorijiy moliya institutlarining (JBG, KNOMAD, Rossiya banki) nashrlari va hisobotlari turli turdagi migrantlarning pul o‘tkazmalarining kirib kelishi va chiqib ketishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plashning asosiy manbalari hisoblanadi. Pul o‘tkazmalarining mamlakatga ta‘sirini baholash mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida berilgan.


O‘zMB nashrlari jismoniy shaxslardan xalqaro pul o‘tkazmalarining kirib kelishi va chiqib ketishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Ushbu nashrlar, shuningdek, rezidentlar tomonidan qabul qilingan xalqaro pul o‘tkazmalari va sof to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimi, shu jumladan milliy YAIMga nisbatan foiz sifatida alohida hisobot beradi. Markaziy bank har chorakda o‘z veb-saytida o‘zbek, ingliz va rus tillarida hisobotlarni e‘lon qiladi. O‘zMB tomonidan e‘lon qilingan 2018-2022-yillardagi O‘zbekistondagi pul o‘tkazmalari bo‘yicha so‘nggi ma‘lumotlari mavjud.

Migratsiya va rivojlanish bo‘yicha bilim va siyosat ekspertizasining global markazi bo‘lgan KNOMAD hamda Jahon banki tomonidan pul o‘tkazmalarining kirib kelishi va chiqib ketishi bo‘yicha bir qator ma‘lumotlar to‘plami va hisobotlar ishlab chiqilgan. Xususan, ikki tomonlama pul o‘tkazmalari matritsasi ma‘lumotlar to‘plami qabul qiluvchi va chiqib ketuvchi mamlakat daromadlaridan foydalangan holda ajratilgan pul o‘tkazmalari oqimlarini baholaydi va 2021-yildan beri migrantlar zaxirasini taxmin qiladi (KNOMAD, 2021). Bir nechta hisobotlarda Rossiya Federatsiyasidan pul o‘tkazmalari ulushi taxmin qilinadi (KNOMAD, 2022a, 2022b) va xalqaro migratsiya tendensiyalari va uy xo‘jaliklarining boyligi o‘rtasidagi munosabatlar umumlashtiriladi. (Seitz, 2019).

YAIMga nisbatan olingan shaxsiy pul o‘tkazmalarining sof tushumlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Jahon banki ma‘lumotlar banki veb-saytida Jahon taraqqiyot ko‘rsatkichlari ma‘lumotlar bazasida mavjud. Ma‘lumotlar bazasi, shuningdek, sof to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar to‘plamini o‘z ichiga oladi (JBG, 2023). Qayd etish joizki, Jahon banki Ma‘lumotlar banki ma‘lumotlari O‘zMB tomonidan e‘lon qilingan raqamlardan farq qiladi, bu Jahon Banki o‘z hisob-kitoblarini amalga oshirishda duch kelgan ba‘zi uslubiy muammolar va cheklovlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (KNOMAD, 2023).

Rezident va norezident jismoniy shaxslar tomonidan Rossiya Federatsiyasidan O‘zbekistonga ikki tomonlama pul o‘tkazmalari oqimini o‘zaro tekshirish uchun Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki (RMB) hisobotlaridan foydalanish mumkin. Pul o‘tkazmalari kredit tashkilotlari va pul o‘tkazmalari operatorlari yoki to‘lov tizimlari orqali o‘tkazilgan o‘tkazma turlari bo‘yicha ajratiladi. Ma‘lumotlar 2006-2021-yillar uchun mavjud. (RMB, 2023-yil). Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki 2022-yil mart oyidan boshlab pul o‘tkazmalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni nashr qilishni to‘xtatdi (Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki, 2022-yil). Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Turkiya Respublikasidan pul o‘tkazmalari oqimi o‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan 2018-2020-yillarga baholangan (Rahimov, Yoqubov, 2022).

### 13-RASM: JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN O‘ZBEKISTONGA PUL O‘TKAZISH TIZIMLARI ORQALI PUL O‘TKAZMALARI MIQDORI, 2018-2022-YILLAR (MILLIARD AQSH DOLLAR)




Manba: O‘zMB (2020, 2021, 2022) a va b, KNOMAD (2023a) c, O‘zMB (2018a, 2018b, 2019a, 2019b, 2020a, 2020b, 2021a, 2021b) d, Kommersant.ru (2023) d

*Eslatma. Yuqoridagi manbalar mualliflari tomonidan hisoblangan ma'lumotlar. JB va O'zMB raqamlari uslubiy farqlar va cheklovlar tufayli farq qilishi mumkin.*

2022-yilda O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi 2021-yilga nisbatan ikki baravar ko'paydi va 2021-yildagi 8,07 milliard dollarga nisbatan 16,9 milliard dollarni tashkil qildi. 2023-yilning birinchi yarmi yakunlariga ko'ra, Markaziy Bank 2022-yildagi pul o'tkazmalari oqimining yuqori o'sish sur'atlarini tarixiy tendensiyalarga qaytishini qayd etdi (O'zMB, 2023-yil). 2023-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonga 5,2 milliard dollarlik pul o'tkazmalari kelib tushdi. Bu 2021-yilning shu davriga nisbatan 21,5 foizga kam. (Gazeta.uz, 2023b).

Rossiya Federatsiyasi O'zbekistonga xorijdan pul o'tkazmalarining asosiy manbai bo'lib qolmoqda: 2023-yilning dastlabki 6 oyida pul o'tkazmalarining umumiy oqimining 80 foizi Rossiya Federatsiyasidan kelgan (Gazeta.uz, 2023b). 2023-yilda Rossiya Federatsiyasidan pul o'tkazmalari oqimi kamaydi. Rossiya Federatsiyasidan qabul qilingan pul o'tkazmalarining eng katta hajmi 2022-yilda qayd etilgan. Joriy-yilda jismoniy shaxslar O'zbekistonga 14,5 milliard dollar o'tkazdilar. (Kommersant.ru, 2023).

#### **14-RASM: O'ZBEKISTONDAN CHETGA PUL O'TKAZMALARI MIQDORI, 2018-2021 (MILLION AQSH DOLLARDA)**




■ Jismoniy shaxslarning jami xalqaro pul o'tkazmalari (O'zMB) (a)  
■ Jami xalqaro pul oqib chiqishi (O'zMB) (b)

*Manba: O'zMB (2021, 2020) a, KNOMAD (2023b)*

*Eslatma. Ushbu grafik turli agentliklar (O'zMB va Jahon banki) ma'lumotlariga ko'ra, turli kanallar orqali pul o'tkazmalarining chiqib ketishini ko'rsatadi.*

O'zbekistondan xorijga pul o'tkazmalari hajmi 2018-yildan 2021-yilgacha 1,8 barobar oshdi. 2021-yilda u 1,617 milliard AQSh dollarini tashkil etdi (O'zMB, 2021). Shuningdek, 2018-yildan 2022-yilgacha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sof oqimining o'sishi kuzatildi. 2022-yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi 2,5 milliard dollarga yetdi va 2018-yilga nisbatan to'rt baravar oshdi (O'zMB, 2022).

## 15-RASM: TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING SOF OQIMI, 2018-2022-YILLAR (MILLION AQSH DOLLARIDA)



Manba: O'zMB (2022, 2021, 2020)

Umuman olganda, pul o'tkazmalari migrant oila a'zolarining farovonligini ta'minlashda faol rol o'ynaydi. Moliyaviy yordam oilalarga duch keladigan iqtisodiy qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, pul o'tkazmalaridan keladigan daromad bo'lmasa, O'zbekistonda qashshoqlik darajasi 16,8 foizgacha oshishi mumkin. (Seitz, 2019).

Ma'lumotlar to'plash natijasida turli xalqaro va milliy institutlar tomonidan tuzilgan pul o'tkazmalari oqimi va chiqimi bo'yicha ko'plab statistik manbalar aniqlandi. Ayni paytda, milliy departamentlar tomonidan 2022-yil uchun pul o'tkazmalarining chiqimi haqida haligacha e'lon qilingan ma'lumotlar yo'q. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va O'zMB tomonidan taqdim etilgan pul o'tkazmalari oqimi o'rtasidagi tafovut aniqlandi. Ular Jahon banki o'z baholashlarida duch kelgan uslubiy muammolar va cheklovlar bilan bog'liq. Rivojlanish bo'yicha rasmiy yordam va pul o'tkazmalari bo'yicha jami moliyaviy oqimlarning ulushi bo'yicha ma'lumotlar yig'ilmagan. 2023-yil uchun pul o'tkazmalari oqimi haqidagi ma'lumotlar faqat ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklardan olingan.

## 14-JADVAL: O'ZBEKISTONDA PUL O'TKAZMALARI TO'G'RISIDAGI MAVJUD MA'LUMOTLARDAGI BO'SHLIQLAR, 2023-YIL

O'zbekistonga pul o'tkazmalari	Eng so'nggi mavjud ma'lumotlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Pul o'tkazmalari oqimi							
Pul o'tkazmalari chiqimi							
Pul o'tkazmalarining sof oqimi							
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar							
Rivojlanish bo'yicha rasmiy yordam							
Pul o'tkazmalari jami moliyaviy oqimlarning % i sifatida							
Pul o'tkazmalari YAIMga nisbatan %							

## 9. MA'LUMOTLARDAGI BO'SHLIQLAR VA KELAJAKDAGI TADQIQOTLAR

O'zbekistonga oid migratsiya to'g'risidagi to'plangan ma'lumotlarni baholashda insonlar migratsiyasining turli jabhalarida, jumladan, immigratsiya, emigratsiya, qaytish migratsiyasi, noqonuniy migratsiya, qochqinlar, ichki ko'chirish, ichki migratsiya va pul o'tkazmalari to'g'risidagi ma'lumotlarda sezilarli bo'shliqlar aniqlandi.

Mahalliy statistika va soha agentliklari tomonidan qiziqish doirasidagi aholi soni to'g'risida kamdan-kam hollarda ma'lumot nashr etiladi. Topilgan yagona ma'lumotlar TMMA tomonidan oshkor qilingan xorijdagi mehnat migrantlarining umumiy soniga tegishlidir. Immigrantlar, emigrantlar, qochqinlar va ichki ko'chirilgan aholi haqidagi birlamchi ma'lumotlar, asosan, UNDESA, IOM, UNHCR kabi BMT agentliklari va IKMM ma'lumotlar bazalarida mavjud.

Immigratsiya, emigratsiya va ichki migratsiya oqimlarini o'rganish uchun asosiy ma'lumotlar manbai O'ZSTAT ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Biroq, bu ma'lumotlar obyektiv sabablarga ko'ra real migratsiya holatini to'liq aks ettira olmasligi mumkin. O'ZSTAT ma'lumotlari IIV ning O'zbekiston fuqarolari va xorijlik fuqarolarning ketish yoki kelish holatida ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlariga asoslanadi. Biroq, mamlakatni tark etayotgan yoki boshqa hududlarga ko'chib o'tayotgan migrantlar har doim ham doimiy yashash joyidan chiqib ketishlari yoki yangi yashash joyida ro'yxatdan o'tishlari qayd qilmasligi mumkin.

Ma'lumotlarning milliy va xalqaro tegishli guruhlar tomonidan kuzatilishi va tarqatilishida izchillik ko'p hollarda yo'qoladi. Bir toifadagi ma'lumotlar davriy hisobotlar va ma'lumotlar to'plamlarida oshkor etilishi yoki yo'qolishi mumkin.

O'zbekistonga immigratsiya bo'yicha mavjud ma'lumotlar to'plami tahlili shuni ko'rsatdiki, immigrantlar soni faqat 2019-2021-yillar va 2018-yilgacha mavjud. Jins bo'yicha ma'lumotlar 2019-, 2020- va 2018-yilgacha mavjud. Immigrantlar soni, vatandagi kelib chiqish joyi bo'yicha, immigrantlar ish holati va ta'lim darajasi bo'yicha ma'lumot yo'q. O'ZSTAT va UNDESA ma'lumotlar to'plami tufayli 2000-yildan buyon immigratsiya oqimini belgilangan hududlar bo'yicha kuzatish mumkin. Biroq, jins bo'yicha immigrantlar oqimi haqidagi ma'lumotlar faqat 2018-, 2021- va 2022-yillar uchun mavjud.

Tadqiqot O'zbekistondan emigratsiya, ayniqsa, tashqi mehnat migratsiyasi soni va oqimi bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni aniqladi. Emigrantlar soni va oqimini jinsi, boradigan mamlakati va kelib chiqish joyi bo'yicha ajratish mumkin. Biroq, bir qator bo'shliqlar hali ham mavjud. Emigrantlarning ta'lim darajasi haqidagi ma'lumotlar faqat 2022-yil uchun mavjud. 2023-yil uchun emigrantning jinsi va yoshi, shuningdek, 2018-yil uchun emigrantning jinsi va boradigan mamlakat haqida ma'lumotlar mavjud emas.

Qaytish migratsiyasi haqidagi ma'lumotlar mahalliy va xalqaro ma'lumotlar to'plamiga asoslanadi. Ma'lumotlar mehnat migrantlari soni va IOM yordami bilan qaytganlar soniga qaratilgan. Biroq, butun o'rganish davri (2018-2023-yillar) uchun mavjud bo'lgan ushbu ma'lumotlar to'plamlarida hali ham ba'zi bo'shliqlar mavjud. 2018-2021-yillarda vatanga qaytgan mehnat migrantlari oqimi haqida ma'lumotlar yo'q. 2018-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda qaytgantlarning jinsi va yoshi, qaytgan mamlakati, qaytish joyi va qaytishgacha bo'lgan ish turi bo'yicha statistik ma'lumotlarda bo'shliqlar mavjud. Qaytganlarning ta'lim darajasi to'g'risida ma'lumot beruvchi biron bir manba topilmadi. Ixtiyoriy ravishda qaytgan migrantlarga kelsak, ma'lumotlar faqat 2018-2022-yillar uchun qaytib kelganlar soni bilan cheklangan.

Noqonuniy migratsiya to'g'risidagi ma'lumotlarni baholashda noqonuniy migratsiya, kontrabanda va odam savdosi bilan bog'liq turli ko'rsatkichlar bo'yicha milliy idoralarning ochiq statistik ma'lumotlari yo'qligi aniqlandi. Yig'ilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish 2019-, 2020- va 2022-yillarda hujjatsiz migratsiyaning asosiy yo'nalishlarida bo'shliqlar mavjudligini, 2018- va 2022-yillar oralig'ida hujjatsiz migratsiyaning asosiy usullari haqida ma'lumot topilmaganini aniqladi. Kontrabanda uchun foydalaniladigan asosiy yo'nalishlar haqidagi ma'lumotlar faqat 2023-yil va 2018-yilgacha bo'lgan davr uchun mavjud. Kontrabandachilardan foydalangan migrantlar soni va 2018-yildan 2023-yilgacha hujjatsiz/kontrabanda shaxslarning ijtimoiy-demografik profili to'g'risidagi ma'lumotlarda qo'shimcha bo'shliqlar mavjud. Bundan tashqari, 2018-, 2020-2021-yillarda bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tgan hujjatsiz migrantlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar haligacha tushunarsizligicha qolmoqda.

Tadqiqotda O'zbekistonga kirib kelayotgan va O'zbekistondan chiqib ketayotgan qochqinlar haqidagi ma'lumotlardagi bo'shliqlar aniqlangan. Xususan, 2018-2023-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonga qabul qilingan qochqinlar sonini yosh guruhlari va jinslar bo'yicha taqsimlashda bo'shliqlar aniqlandi. 2018-2020-yillar va 2022-2023-yillar davomida O'zbekistonga kelib joylashgan qochqinlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlar identifikatsiya qilish uchun mavjud emas. Bundan tashqari, 2023-yil uchun O'zbekistondan chiqib ketgan qochqinlar soni bo'yicha jinsi va yoshi bo'yicha ajratilgan ma'lumotlar yo'q. Ikkala turdagi qochqinlarning jinsi va ta'lim darajasi haqida hech qanday ma'lumot topilmadi.

Ichki ko'chirish haqidagi ma'lumotlarda ichki ko'chirilgan aholi va tabiiy ofatlardan evakuatsiya qilingan odamlarning jinsi, bandlik holati, ta'lim darajasi va yoshi to'g'risida ma'lumotlar yo'q. Ma'lumotlar to'plamlari 2000-yillardagi ichki



ko'chirilgan aholi raqamlari, 2020- va 2022-yillar uchun ichki ko'chishlar soni va oqimlari haqida batafsil ma'lumot berishda cheklangan.

O'zbekistonda Katta ma'lumotlardan foydalangan holda migratsiya jarayonlari yaxshi o'rganilmagan. Rossiyalik olimlarning O'zbekistondan kelgan migrantlar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari keyingi tahlil uchun qiziqish uyg'otadi. Ular Rossiya Federatsiyasidagi migrantlarning ahvoli, ularning tashvishlari, rejaları va atrofdagi voqelikka munosabati haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Pul o'tkazmalari bo'yicha, pul o'tkazmalarining kirib kelishi va chiqishi haqidagi ma'lumotlar mahalliy va xalqaro manfaatdor tomonlar tomonidan keng tahlil qilinadi. Biroq, ba'zi bo'shliqlar hali ham mavjud. 2022-yil uchun pul o'tkazmalari oqimi bo'yicha ma'lumotlar olinmagan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va O'zbekiston Markaziy banki tomonidan taqdim etilgan pul o'tkazmalari oqimida ham nomuvofiqlik aniqlandi. Rasmiy rivojlanish yordami va pul o'tkazmalarining umumiy moliyaviy oqimlarga nisbatan ulushi haqida ma'lumot yo'q. 2023-yil uchun pul o'tkazmalari oqimi bo'yicha mavjud ma'lumotlar faqat ommaviy axborot vositalari xabarlarida mavjud.

Aniqlangan ma'lumotlardagi bo'shliqlarga asoslanib, mahalliy va xalqaro manfaatdor tomonlarga migratsiya ma'lumotlarini o'rganishni kuchaytirish, asosiy e'tiborni jinsi va yoshi, kelib chiqish joyi va boradigan joyi, kasb turi va bandligi, ta'lim darajasi bo'yicha taqsimlangan zaxiralar va oqimlar to'g'risida ma'lumot to'plashga rag'batlantiriladi.

Migratsiya oqimlarini kuzatishda birlamchi ma'lumotlarni yig'ishning turli usullarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat tarmoq vazirliklari tomonidan to'plangan ma'muriy ma'lumotlarni tahlil qilish, balki aholini ro'yxatga olish, miqdoriy so'rovlar va Mobillikni kuzatish matsitsasi muntazam ravishda o'tkazishni ham o'z ichiga oladi.

Immigratsiya, emigratsiya va ichki migratsiya ma'lumotlari monitoringini yaxshilash uchun zaxiralar to'g'risidagi ma'lumotlarning tizimli kuzatuvini yo'lga qo'yish hamda migrantlar soni va oqimi ma'lumotlari bo'yicha muntazam hisobot berishda izchillikni ta'minlash tavsiya etiladi.

Noqonuniy migratsiya va odam savdosi bo'yicha milliy tadqiqotlarni boshlash, holatlar soni va oqimlariga, shuningdek, noqonuniy migratsiya uchun qo'llaniladigan asosiy yo'nalishlar va usullarga e'tibor qaratish juda muhimdir. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan taqdim etilgan ushbu soha to'g'risidagi cheklangan ma'lumotlar O'zbekistonning noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurash borasidagi sa'y-harakatlarining yetarlicha talqin qilinmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Qochqinlar va ichki ko'chirilgan aholi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish mavjud sharoitlarni baholashga yordam beradi va O'zbekistonning qochqinlar bo'yicha asosiy konvensiyalarni ratifikatsiya qilish yo'lidagi muvaffaqiyatini tezlashtiradi.

Katta ma'lumotlardan foydalangan holda tadqiqot o'tkazish katta imkoniyatlar yaratadi va ham tashqi migratsiya oqimini, ham mamlakat ichidagi ichki mobillikni tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Masalan, geolokatsiya teglari mamlakat bo'ylab aholi harakatini tahlil qilishga yordam beradi. Internet-qidiruv so'rovlarini tahlil qilish chet elda va mamlakat ichida migratsiyaning maqsadlari va sabablari haqida ma'lumot beradi. Ijtimoiy tarmoqlar tadqiqot uchun ma'lum auditoriyani maqsad qilib olish imkonini beradi.

Migratsiya ma'lumotlaridagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish uchun milliy va xorijiy statistika idoralari, tegishli soha vazirliklari va xalqaro manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunday hamkorlik birgalikda ma'lumotlar almashinuvi va migratsiya bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar uchun zarurdir.

